

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

I-qism
(uslubiy qo'llanma)

5380100 - "Yurisprudentsiya"
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

*Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti
o'quv-uslubiy Kengashi majlisining
2008-yil 6-oktyabrdagi 1-son
qaroriga ko'ra nashrga tavsiya etilgan.*

Samarqand – 2009

Fuqarolik protsessual huquqi. Uslubiy qo'llanma. – 1-qism. SamDU nashri, 2009. – 100 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma umumkasbiy fanlar blokiga kiradigan mutaxassislik fani hisoblanadi. Ushbu fan bo'yicha manbalar TDYUI, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi tomonidan chop etilgan o'quv qo'llanma va darsliklar mavjud. Bundan tashqari bizning fakultetda ushbu fan bo'yicha talabalarga ma'ruza matni, o'quv dasturlari, tarqatma materiallar hamda elektron darsliklar mavjud. Lekin bugungi kunda protsessual huquqlarning murakkablashib borishi mazkur turdagi qo'llanmalarni yangi qonun hujjatlari asosida takomillashtirib borishni talab qilmoqda.

Uslubiy qo'llanma mazkur fan bo'yicha amaldagi o'quv dasturi asosida tayyorlandi.

Ushbu ishda muallif yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi fanining umumiy qismini o'rganish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy manbalarni puxta o'zlashtirishlari, ularda ushbu fan bo'yicha puxta bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va chuqur bilim olishlari uchun manba sifatida tavsiya etilmoqda.

Tuzuvchi

Katta o'qit. **Z.QUVONDIQOV**

Mas'ul muharrir

yuridik fanlari nomzodi,
dots.J.Ibodullayev

Taqrizchilar:

katta o'qit. I.Begaliyev
Samarqand viloyat fuqarolik
ishlari bo'yicha viloyat
sudining sudyasi A.Nazarov

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2009

SO‘Z BOSHI

Ushbu uslubiy qo‘llanma mamlakatimizning o‘z mustaqilligiga ega bo‘lishi bilan barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilishi sababli jumladan, sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlarning keng avj olib borishida fuqarolik sudlarida ishlarni ko‘rishni qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini talab qiladi. Bugungi kunda ushbu sohani keng va har taraflama rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda ko‘plab qonun hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, asosiy qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamiz, Sudlar to‘g‘risidagi qonun, Prokuratura to‘g‘risidagi qonun, Advokatura to‘g‘risidagi, notariat, fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi fuqarolik to‘g‘risidagi, bundan tashqari mehnat kodeksi, uy-joy kodeksi, oila kodeksi fuqarolik kodeksi va bir qancha shunga o‘xshash normativ me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu normativ me‘yoriy hujjatlar fuqarolik protsessual huquq fanining asosini va asosiy manbasini tashkil etadi. Shu o‘rinda ushbu fanni talabalar o‘zlashtirishlari uchun ularga har bir mavzuning qisqacha manbasi, uning yo‘nalishi, qoida va tartiblari, maqsadi va vazifalari hamda nazorat savollari, test variantlari, va ko‘plab yuqorida belgilangan mavzularga oid adabiyotlar berildi.

Mazkur uslubiy qo‘llanmaning birinchi qismida hozirgi davrda ushbu sohada mavjud bo‘lgan qonun hujjatlari va bu borada yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlari ularga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga e‘tibor qaratib, unda fuqarolik protsessual huquqning tushunchasi, tizimi, tamoyillari, protsessual huquqiy munosabatlar, fuqarolik protsessida taraflar, fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar, protsessda prokurorning ishtiroki, boshqa shaxslarning huquqlarini sudda himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessual huquqlari, suddagi vakillik, sud xarajatlari va sud jarimalari, protsessual muddatlar, fuqarolik ishlarini sud va boshqa idoralarga taalluqliligi, fuqarolik ishlarining sudlovga talluqliligi, isbotlash va dalillar, da‘vo, suda fuqarolik ishlarini qo‘zg‘atish, fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash, fuqarolik ishlarini sudda muhokama qilish mavzularini o‘rganilishi batafsil berilgan. Bundan tashqari, ushbu uslubiy ishlanmada sud, prokuratura, advokatura, notariat idoralarining amaliyotini o‘rganish bilan bevosita oldingi manbalar va o‘quv dasturlaridan, bu borada huquqshunos olimlar, amaliyotchilar tomonidan yaratilgan darsliklar, ilmiy adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalarni o‘rganish bilan birga jamiyatimiz hayotida bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgartirishlarga moslagan holda olib borishni talab qiladi. Ushbu uslubiy qo‘llanmada fuqarolik protsessual huquq fanini talabalar ongiga yetkazishning ilg‘or usullaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Fuqarolik protsessi fanini o‘qitishdan maqsad talabalarda fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayoni ishtirokchilari va manfaatdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositalarini sudlarda qo‘llash orqali fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish borasidagi qonun hujjatlari to‘g‘risida chuqur bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Fuqarolik protsessi fanining vazifalari talabalarning fuqarolar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish borasidagi bilim va dunyoqarashini rivojlantirish, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda va sudga qadarli himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, ularda moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fuqarolik protsessi fani nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qator masalalarni; fanning predmetini, asosiy tamoyillarini protsessual huquqiy munosabatlar va ularning sub'yektlari, da'vo, isbotlash, dalillar va boshqalar (umumiy qism) hamda fuqarolik protsessining turli bosqichlariga doir ayrim muammolarni o'rganish va tadqiq qilish uchun mo'ljallangan.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmalariga DTS ga asosan qo'yilgan talablar

Bakalavr

- fuqarolik protsessual qonunchiligiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari;
- protsess ishtirokchilari va ularning huquqiy maqomi;
- sud qarorlari chiqarish va ularning ijrosi;
- sud qarorlarini yuqori instantsiyalar (appelyatsiya, kassatsiya, nazorat)da qayta ko'rish asoslari va tartibi haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak;
- sudlarda fuqarolik ishlarini ko'rish va hal etish tartibini;
- birinchi instantsiya sudining qarorlari ustidan berilgan shikoyat va protestlarni ko'rishni;
- yuqori sud instantsiyalari vakolatlarini bilishi va qo'llay olishi kerak.
- fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish borasidagi fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni o'rganish va tahlil qilish;
- fuqarolik protsessual qonunchilik normalarini sud-huquq islohotlari bilan uzviy ravishda o'rganish;
- fuqarolik ishlari yuzasidan sifatli va malakali yuridik xulosalar tayyorlash, fuqarolarga huquqiy maslahatlar va boshqa turdagi yuridik yordam ko'rsatish yuzasidan ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

O'qitishning kompyuter, informatsion va boshqa yangi texnologiyalarini qo'llash

Mazkur fanni o'rganish va o'qitishning ana'naviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish, kollokviumlar, texnik vositalarni qo'llash, yuridik klinika va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

№	Mavzular	Soat
1	2	3
	<i>5-semestr</i>	
1	Mavzu: Fuqarolik protsessi tushunchasi va tizimi.	1
2	Mavzu: Fuqarolik protsessual huquqining asosiy tamoyillari.	1
3	Mavzu: Fuqarolik protsessida taraflar.	2
4	Mavzu: Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslarning ishtiroki.	2
5	Mavzu: Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki.	1
6	Mavzu: Boshqa shaxslarning huquqlarini sudda himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessdagi ishtiroki.	1
7	Mavzu: Suddagi vakillik.	2
8	Mavzu: Sud xarajatlari. Sud jarimalari.	1
9	Mavzu: Protsessual muddatlar.	1
10	Mavzu: Fuqarolik ishlarining sud va boshqa organlarga taalluqliligi.	2
11	Mavzu: Fuqarolik ishlarining sudlovliligi.	1
12	Mavzu: Isbotlash va dalillar.	1
13	Mavzu: Da'vo.	2
14	Mavzu: Sudda fuqarolik ishlarini qo'zg'atish.	2
	Jami:	20

No	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari		Soat
1	2		3
	5-semestr		
1	Mavzu: Fuqarolik protsessi tushunchasi va tizimi.		1
2	Mavzu: Fuqarolik protsessual huquqining asosiy tamoyillari.		1
3	Mavzu: Fuqarolik protsessida taraflar.		2
4	Mavzu: Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslarning ishtiroki.		2
5	Mavzu: Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki.		1
6	Mavzu: Boshqa shaxslarning huquqlarini sudda himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessdagi ishtiroki.		1
7	Mavzu: Sudagi vakillik.		2
8	Mavzu: Sud xarajatlari. Sud jarimalari.		1
9	Mavzu: Protsessual muddatlar.		1
10	Mavzu: Fuqarolik ishlarining sud va boshqa organlarga taalluqligi.		2
11	Mavzu: Fuqarolik ishlarining sudlovliligi.		1
12	Mavzu: Isbotlash va dalillar.		1
13	Mavzu: Da'vo.		2
14	Mavzu: Sudda fuqarolik ishlarini qo'zg'atish.		2
	Jami:		20

1-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI TUSHUNCHASI VA TIZIMI

Tayanch iboralar: O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessi tushunchasi, fuqarolik protsessi fani predmeti, uslubi va tizimi, fuqarolik protsessining manbalari, fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy, fuqarolik, oila, mehnat, ma'muriy huquq, xo'jalik protsessual va jinoyat protsessual huquqi hamda boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi, fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi va uning vazifalari, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari, fuqarolik protsessining bosqichlari.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessi tushunchasi deganda har bir fuqaro, yuridik shaxs, davlat, davlat boshqaruv idoralarining hamda jamoat birlashmalarining noqonuniy qarorlari ustidan sudga murojaat etib, buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlarini tiklash huquqi va ularni himoya qilish huquqlarini kafolatlash tushuniladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlari ustuvor bo'lishi kerakligi, davlat va davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash ishiga safarbar qilingandagina o'z vazifasini to'g'ri ado etajakligi, fuqarolarning manfaatlari va huquqlarini sud orqali himoya qilish sohasini mumkin qadar kengaytirish darkorligi, ayrim tarmoq qonunlarida huquqlari paymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo'li bilan emas, balki ma'muriy yo'l bilan ko'rib chiqish tartibi uchrab turishi, bu hol inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga va bizning Konstitutsiyamiz talablariga zidligi, fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlari va haq-huquqlari paymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor¹, deb ta'kidlashi sud hokimiyatiga nisbatan munosabatni va sudlarning mas'uliyatini yanada oshirishga qaratadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqining tizimi fuqarolik sud ishini yuritishning maqsadi va vazifalarini, fuqarolik protsessual huquqining tamoyillarini, ushbu munosabat subyektlari va ularning huquq va muomala layoqatini, fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi taraflar, ularning huquq va majburiyatlarini, uchinchi shaxslarning protsessual huquq va

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. - 23-24 b.

majburiyatlari, fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki uning vakolatlarini, sud boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv idoralari protsessual huquqlarini, sud da'vogar va javobgar tarafidan ishtirok etuvchi vakillar ularning hug'quq va majburiyatlari, sud ishlari bilan bog'liq sud xarajatlari va sud chiqimlarini, suda ish ko'rishning qonuniy va protsessual muddatlarini, fuqarolik ishlarining sud va boshqa idoralarga taluqliligini, fuqarolik ishlarini ko'rishda dalil va isbotlash masalalari, da'vo ishlari va uni qo'zg'atish, fuqarolik ishlarini suda ko'rishga tayyorlash va uni suda muhokam qilishi, birinchi instantsiya sudlarida ish yuritish, sirtidan ish yuritish, buyruq tartibida ish yuritish, nikohga doir ishlarini ko'rish tartibi, mehnatga doir ishlarni ko'rish tartibi, uy-joyga oid ishlarni ko'rish tartibi, davlat organlari shuningdek mansabdor shaxslarning hatti-harakatlariga doir ishlarni ko'rish tartibi, alohida tartibda ish yuritish, appelyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiya sudlarida ish yuritish, qonuniy kuchga kirgan sud hal qiluv qarorlarining, sud qarorlarining ijro etilishini, sudlarda chet el fuqarolari bilan bog'liq ishlarni ko'rish tartibi, hakamlik sudlari va ularda ish yuritish tartibi hamda notariat xizmati tushun chasidan iborat tizimda o'rganiladi.

Manfaatdor shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilishning sud tartibida amalga oshirish tadbirlari amaliyotda ijobiy natijalar berayotganligini hayot taqozo etmoqda. Bunga asos sifatida fuqarolik protsessual huquqiy me'yorlarni sud amaliyotiga ta'sir ko'rsatishi va sudning o'ziga berilgan vakolat doirasida chin haqiqatni aniqlashga va shu bilan odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan barcha huquqlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi sud hokimiyati, boshqa davlat organlaridan ajratib turadi. Demak, Konstitutsiya va boshqa qonunlarda ko'rsatilganidek, sud organlarining demokratik jihatlarining eng muhimlaridan biri davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda fuqarolar huquqi va erkinliklari himoyasining ustun qo'yilishidir.

Manfaatdor shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan sud odil sudlovni amalga oshiradi. Odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi «Sudlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalari-dan mustaqil ravishda ish yuritish haqida Konstitutsiyada o'z ifodasini topganligi istiqbolga erishgan Respublikamizning demokratik, adolatli huquqiy davlat qurish sari tashlagan ilk qadamlaridan hisoblanadi.

Sudlar o'z faoliyatlari bilan manfaatdor shaxslarning nafaqat huquq va erkinliklarini himoya qilishi, shu bilan ularni qonunni hurmat qilish va unga rioya etish ruhida ham tarbiyalaydi.

Sudlar odil sudlovni amalga oshirishda mustaqil, faqat qonungagina bo'ysinishlari va bu borada olib boriladigan faoliyatga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'ymasligi va bunday aralaShuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishligi «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 2-moddasida belgilab qo'yilgan.

Sud odil sudlovlikka qaratilgan faoliyatini fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunlarga moslagan holda, sudga taalluqli bo'lgan fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da'vo talablariga oid ishlarini, nizosiz bo'lgan, alohida tartibda ko'riladigan ishlarni hamda davlat idoralari, boshqa idoralar, shuningdek mansabdor shaxslarning hatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan ariza va shikoyatlarni ko'rish to'g'risidagi ishlar bo'yicha qonuniy asoslantirilgan, adolatli hal qiluv qarori chiqarish bilan amalga oshiradi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsad va vazifalari protsess ishtirokchilarining buzilgan moddiy va protsessual huquqlarini himoya qilish va shu bilan fuqarolarni qonunlar, huquqiy me'yorlarni bajarishga ongli munosabatda bo'lish ruhida ham tarbiyalashni nazarda tutadi. Jamiyatda huquqiy fikrlar bildirilgan: inson huquqlari-insonparvar demokratik huquqiy ongning o'zagidir. Huquqiy ong darajasi-bu odamlarning huquqlardan shunchaki xabardorligi, qonunlarni bilishigina emas, bu eng avvalo qonunlarga rioya etish va ularni bajarishga tayyorgarlik, qonunga itoatkorlik, huquqni va odil sudlovni hurmat qilishdir.

Demak, sudning odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining ko'rilishi lozim bo'lgan masalani to'g'ri hal qilish uchun manfaatdor shaxslarga qonunda ko'rsatilgan protsessual harakatlarni tatbiq etish bilan g'ayriqonuniy harakat qilgan tarafga nisbatan davlatning majburlash kuchini qo'llash va tegishli fuqarolik ishlarini yechimini topish muammolari tushun iladi.

Huquq sohasida ishlatiladigan "protsess" atamasi lotincha "protsessum" so'zidan olingan bo'lib, harakat degan ma'noni anglatadi. Fuqarolik protsessi fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish bilan bog'liq harakatni, faoliyatni bildiradi.

Demak, fuqarolik protsesi deganda, qonun bilan belgilangan fuqarolik ishlarini ko'rish, hal qilish va sud qarorlarini ijro etish bilan bog'liq faoliyatni tushun amiz. Protsessual qonun sud faoliyatini amalga oshirilishida manfaatdor shaxslarga ishda ishtirok etish huquqini, ularga qator protsessual huquqlar berilishini va protsessual burchlar yuklatilishini belgilaydi.

Mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning huquqlarini yanada to'laroq himoya qilish maqsadida fuqarolik protsessual qonunchilik ham yangilanmoqda.

Subyektiv huquqlarni, ya'ni fuqarolar, tashkilotlarning huquqlarini himoya qilish shakllari "Sudlar to'g'risida"gi qonunda belgilangan. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi va joylardagi sudlar o'z faoliyatini ana shu vazifalarga qaratganlar.

Konstitutsiyaviy sudini tashkil etish va uning faoliyat tartibi alohida ko'riladigan sohaga kiradi.

Umumiy sudlar Konstitutsiyaga va boshqa qonunlarda belgilangan inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda qabul qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklariga korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga rioya etilishini kafolatlashga qaratilgan fuqarolik ishlarini ko'rish, odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshiradilar.

Fuqarolik protsessi shaxslarning mulkiy va shaxsiy huquqlarning sud tomonidan himoya qilinishi shakli sifatida ko'riladi. Shu munosabat bilan muayyan fuqarolik protsessual harakatlar qilinadi. Bunday harakatlar sudda fuqarolik ishining taraflari sifatida qatnashuvchilar va ishning boshqa ishtirokchilari tomonidan qilinadigan protsessual harakatlar, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshiruvchi sudning protsessual harakatlaridan iborat bo'ladi.

Sudda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning muayyan fuqarolik protsessual huquq va burchlari bor. Bu huquq va protsessual burchlar fuqarolik protsessida ishtirok etuvchilarning protsessual harakatlar qilishlari tarzida amalga oshiriladi. Biron-bir huquqni amalga oshirishda manfaatdor shaxs ishni sudda da'vo qo'zg'atish yo'li bilan boshlaydi. Sud bu ishning sudga taalluqli bo'lish-bo'lmasligini tekshirib, da'vo arizasini qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risida ajrim chiqaradi. Da'vo talablarining qo'zg'atilishidan xabardor bo'lgan javobgar esa da'vo yuzasidan bayonot beradi, o'z e'tirozlarini bildiradi yoxud qarshi da'vo qo'zg'atadi. Sud, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bunday harakatlardan tashqari, yana boshqa harakatlarni ham amalga oshiradilar. Bu harakatlarning hammasi fuqarolik protsessual harakatlar bo'lib, fuqarolik sud ishlarini yuritish, yangi fuqarolik protsessi sifatida ko'riladi.

Sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan va bu shaxslarning sudga nisbatan bo'lgan fuqarolik protsessual huquq va burchlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlari fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar bo'ladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish (fuqarolik protsessi) vazifalari to'g'risida shuni aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 4-moddasida belgilanganidek, fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari fuqarolarning shaxsiy-siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini, erkinliklarini va manfaatlarini, Shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishdan iboratdir.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, demokratiyani, ijtimoiy adolatli, fuqarolar o'rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta'minlashga ko'maklashishi lozim.

Mustaqil O'zbekiston davlati qonunlarining qat'iyani aniq bajarilishi fuqarolarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini shak-shubhasiz qo'riqlash to'g'risida Prezidentimiz raxnamoligida qator tadbirlar belgilanib, shu bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar oldiga muhim vazifalar qo'yildi.

I.A.Karimov huquq organlari faoliyatining qonuniy negizini mustahkamlashimiz zarurligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklanganligi, sud, prokuraturar, militsiya to'g'risidagi qonunlarni takomillashtirib borish zaruriyatini tobora ko'zga tashlanayotganligi haqida ta'kidladilar. Shu munosabat bilan fuqarolik protsessining roli tobora

oshib bormoqda. Bunga Oliy Majlisning 1997-yil I-chaqiriq IX-sessiyasida Fuqarolik va Xo'jalik protsessual kodekslarining qabul qilinishi yorqin misol bo'la oladi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda odil sudlovni O'zbekiston xalqining irodasini ifodalovchi qonunlarga asoslangan holda amalga oshirilishi o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalariga ko'ra, FPKning 2-moddasi O'zbekiston Respublikasining hamma sudlarida fuqarolik ishlarini yuritish tartibi qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi bilan belgilanishi ko'rsatilgan.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari da'vo tartibidagi ishlarni, organlar va mansabdor shaxslarning hatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarni hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

Organlar va mansabdor shaxslarning hatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyatlar, shuningdek alohida tartibda ko'riladigan ishlar bo'yicha ish yuritish tartibi asosan FPKning 26-35-boblarida keltirilgan moddalar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining sudlarida fuqarolik sud ishlarini yuritish, ish ko'rilayotgan, ayrim protsessual harakatlar bajarilayotgan yoki sudning hal qiluv qarori ijro qilinayotgan vaqtda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual va boshqa qonunlari asosida olib boriladi.

Basharti O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlaridan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi (FPKning 3-moddasi).

Sud ishlarini yuritish muayyan shaklda amalga oshiriladi. Bu fuqarolik protsessual shakl (forma)ning mohiyati quyidagilardan iborat:

- fuqarolik ishlari bo'yicha ish yuritish tartibi oldindan protsessual qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'ladi;
- sud himoyasi uchun qonunda belgilangan yozma shaklda sudga murojaat qilish huquqi beriladi;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessual huquqlardan, xususan ishni ko'rishda sud majlisida ishtirok etish huquqidan foydalanadilar;
- sudning hal qiluv qarori protsessual qonunda ko'rsatilgan dalillar vositasi bilan aniqlangan faktik ma'lumotlarga va qonunga asoslangan bo'lishi shart qilib qo'yiladi.

Ishni ko'rish jarayonida sud umumiy qoida bo'yicha chin haqiqatni aniqlash uchun ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risidagi taraflarni xabardor qilishi lozim.

Sud majlisida ularga huquqlarini himoya qilish, bayonot berish, ish materiallari bilan tanishish, dalillar taqdim etish, ikkinchi tararfga e'tiroz bildirish, o'zining da'vo talablariga yoiniki da'voga tegishli bo'lgan e'tirozni tegishli dalillar bilan isbotlash imkoniyatini ta'min qiladi.

Odil sudlovni bunday protsessual shakli sudga ish bo'yicha chin haqiqatni aniqlash va qonunga asoslangan hal qiluv qarorini chiqarish imkoniyatini berish bilan birga taraflarga sud orqali shaxsiy va mulkiy huquqlarning va

qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining himoya qilinishi imkoniyatini ham yaratadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessual huquqlarini va protsessual burchlarini tegishli protsessual harakatlar qilish yo'li bilan amalga oshiradilar. Masalan, fuqarolik sud ishi boshlanishida agar da'vogar bo'lsa, da'vo talablarini qo'zg'atish huquqini sudga da'vo arizasini berish yo'li bilan amalga oshiradi. Javobgar esa da'vogar qarshi himoya qilinish huquqini, ya'ni da'voga qarshi e'tiroz bildirish yoki qarshi da'vo qo'zg'atish yo'li bilan amalga oshiradi. Sudning dastlabki protsessual huquqi taraflarning shaxsan bayonot berish uchun taklif qilish to'g'risida ajrim chiqarish va ularni sudga chiqarish tartibida amalga oshiriladi. Sudning protsessual burchi taraflar o'rtasidagi nizoga oid masalalarni aniqlash uchun taraflarni so'roq qilish, dalillarni to'plash, keltirilgan dalillarni tekshirish va boshqa ba'zi protsessual harakatlarni bajarishdan iborat bo'ladi.

O'zlashtirish savollari

1. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessi tushunchasi.
2. Fuqarolik protsessi fani predmeti, uslubi va tizimi.
3. Fuqarolik protsessining manbalari.
4. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy, fuqarolik, oila, mehnat, ma'muriy huquq, xo'jalik protsessual va jinoyat protsessual huquqi hamda boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi.
5. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi va uning vazifalari.
6. Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari. Fuqarolik protsessining bosqichlari.

2-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK PROTSESSINING TAMOYILLARI

Tayanch iboralar: fuqarolik protsessining tamoyillari tushunchasiva mohiyati, fuqarolik protsessining tamoyillari tizimi va tasnifi, odil sudlovning faqat sud tomonidan hamda fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishi, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi, sud ishlari yuritiladigan til, sudda ish ko'rishning oshkoraligi, sudda ishni ko'rishning bevositaligi va og'zakiligi, ishlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilish, fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay'at tomonidan ko'rilishi, ishning haqiqiy holati, taraflarniig huquq va majburiyatlari sud tomonidan aniqlanishi, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrim va qarorning majburiyligi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan u asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining me'yor - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaniing fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Ushbu mavzuni o'rganishda talabalar avvalom bor Konstitutsiyamizda belgilangan tamoyillarg, fuqarolik protsesual kodeksida belgilangan tamoyillarga, sudlar to'g'risidagi qonunda belgilangan tamoyillarga e'tibor berishliklari lozim. Fuqarolik sudlarida ish yuritishda eng avvalo sudlarning Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 8, 10-moddasiga, Konstitutsiyamizning 12, 13, 15, 18, 44-, 106, 107, 108, 109, 110, 111,m 112, 113, 114, 115 hamda 116-moddalariga qat'iy amal qilishlari lozimdir. Fuqarolik protsessual tamoyillar FPK ning 6,7, 8, 9, 10, 11,12,13,14,15,15,16,va 17-moddalarida belgilangan qoidalarni o'rganishlari lozim bo'ladi. Bundan tashqari Sudlar to'g'risidagi qonunning 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10,-moddalarida belgilangan qoidalarni o'rganishlari talab etiladi.

Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash tamoyilini hayotga keng tatbiq qilish maqsadida Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston 21-asrga intilmoqda asarida yozadi "... sud tizimini isloh qilish, avvalo, hukm chiqaruvchi sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Faqat shunday qilganda hozir sudni jazolovchi organ deb biladigan odam sudga o'z huquqlari va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilishi lozim bo'lgan organ sifatida murojaat qiladigan bo'ladi, ana shundagina sud hokimiyatining haqiqiy mustaqil uchinchi tarmog'iga aylanadi¹ deb ta'kidlashi bejiz emas".

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda. –T.:, 1999. -29-30 -b.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda sudyalarning qonunlarga amal qilishi eng avvalo ushbu sohada belgilangan tamoyillarga bo'ysunishi, ular asosida ish yuritishlari va barcha sudyalarning ishlarni o'z vaqtida, qonuniy, asosli va adolatli ko'rib chiqishida yuqorida qayd qilingan qonunlarda belgilab qo'yilgan tamoyillarga amal qilib ish yuritishlari lozim va shart hisoblanadi.

Fuqarolik protsessida belgilangan tamoyillar yoki bir so'z bilan aytganda qoidalar sud pog'onasining har bir bug'inida eng birinchi navbatda qo'llaniladigan normalar va asoslar bo'lib, ishlarni qonunlarda belgilangan talablarda ko'rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jarayonining tamoyil (printsip)lari deb, fuqarolik protsessual huquqining asosiy, rahbariy qoidalariga aytiladi. O'zining mazmuni bo'yicha bu printsiplar sudning fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish borasidagi vazifalari va faoliyati to'g'risidagi printsiplari bo'lib ko'riladi.

Jarayon printsiplari tizimi "Sudlar to'g'risida"gi qonunda va fuqarolik protsessual huquqi me'yorlarida ifodalangan bo'lib, amalda bo'lishi, tadbiq etilishi yuzasidan bir-birlari bilan o'zaro uzviy bog'liq holda ikki guruhga: birinchidan, sud tuzilishi hamda sud ishlarini yuritishga oid umumiy printsiplarga va ikkinchidan, faqat sud ishlarini yuritishga xos printsiplarga bo'linadi.

Birinchi guruhga doir bo'lgan printsiplar quyidagicha: 1) odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi; 2) fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi; 3) odil sudlovni saylangan (tayinlangan) sudyalar tomonidan amalga oshirilishi; 4) fuqarolik ishlarining birinchi instantsiya sudida ko'rilishida xalq maslaxatchilarining ishtirokisiz sudyaning yakka tartibda yuqori sudlarda esa ishlarning qolligial, ya'ni eng kamida uchta sudya ishtirokida ko'rilishi; 5) sudyalarning mustaqilligi; 6) sud ishlarining milliy tilda yuritilishi va 7) sudda ish ko'rishning oshkoraligi printsiplaridir.

Ikkinchi guruhga oid printsiplar: 1) ishlarning amaldagi qonunlar asosida hal qilinishi; 2) chin haqiqat; 3) jarayondagi erkinlik huquqi, ya'ni dispozitivlik; 4) tortishuvchilik; 5) fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqliligi; 6) ishning og'zaki ko'rilishi; 7) ish ko'rishning bevositaligi; 8) sud ishining uzluksiz ko'rilishi va 9) sud himoyasidan foydalanish imkoniyatining ta'minlanishi printsiplaridir.

Protsessual huquqning konstitutsion prinsiplari va ularning amalda bo'lishi kafolatlari to'g'risida to'xtalib, bu prinsiplarning o'zlashtirishni osonlashtirish maqsadlarida, avvalo yuqorida ko'rsatilgan birinchi guruhga oid printsiplarni bayon etamiz.

1. Odil sudlovni faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi prinsipi. O'zbekiston Respublikasida odil sudlovni amalga oshirishni, buning uchun maxsus tashkil etilgan, davlat organlariga sudga topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi ko'rsatilgan.

Fuqarolik huquqlar asosan sud organlari tomonidan himoya qilinadi. Shu bilan birgalikda mehnat huquqi, oila huquqi, uy-joy huquqi munosabatlaridan

kelib chiqadigan nizolar boshqa organlarda ham chunonchi, mehnat ishlari komissiyalarida, hakamlar (holislar) sudlarida ham ko'rilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek tadbirkorlar o'rtasidagi iktisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va joylardagi xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshirilishi ta'kidlangan.

Sud o'z faoliyatini amalga oshirishda muayyan protsessual sharoitlarda harakat qiladi. Bu sharoitlar chin haqiqatni aniqlashga, haqqoniy qaror chiqarishga imkoniyat beradi.

Sudning fuqarolik ishlari bo'yicha chiqargan qarorlari faqat yuqori sud organlari tomonidagina bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Ma'lum huquqning buzilganligini belgilash va huquqni buzuvchi shaxsni muayyan fuqarolik huquqiy javobgarlikka, ya'ni mulkiy javobgarlikka tortish huquqi asosan sud organlariga berilgan.

Fuqarolik protsessual qonunlari sudga, muayyan asoslar bo'lgan taqdirda fuqarolik ishlarini sudga taalluqli bo'lmasa, ish yuritishni tugatishga, ishni mazmuni bo'yicha hal qilish uchun boshqa biron-bir tashkilotga yuborish huquqini beradi. Bunday tartibning o'rnatilishi odil sudlovni faqat sud tomonidan amalga oshirilishi printsipidan chetlash bo'lib ko'rilmaydi.

Ayrim fuqarolik ishlarining ko'rilishi va hal qilinishini sud taalluqliligiga qarab, boshqa idoralarga ham yuborishi mumkin. Ammo bunday hollarda ham sud o'zining ustunlik huquqini saqlab qoladi, chunki chiqargan qarorlari yuzasidan ijro varaqalari berilishida, ularning qonunga muvofiq bo'lish-bo'lmasligini tekshirish vazifasi sudga yuklatilgan bo'ladi.

Ba'zi nizolar bir necha organlar tomonidan ko'rilishi mumkin, masalan, mehnatga oid nizolar bo'yicha xodim xohishiga qarab mehnat nizolarini ko'rish komissiyaga, so'ngra uning qarorlaridan norozi bo'lsa, sudga murojaat qilishga haqli.

Qonun ba'zi hollarda, ayrim talablarni ko'rish va hal etishda ustunlikni xo'jalik sudiga nisbatan umumiy sudga beradi, chunonchi : FPKning 32-moddasida bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ba'zilar sudga, ba'zilar esa xo'jalik sudlariga taalluqli bo'lgan bir qancha talablar birlashtirilganda, bu talablarning hammasi sudga ko'rilishligi belgilangan.

Agar hakamlar sudlari mehnat va oila munosabatlaridan kelib chiqqan nizolarni hal qila olmasalar, xo'jalik sudlari fuqarolar bilan fuqarolar o'rtasidagi nizolarni ko'rmasalar, ma'muriy organlar esa, fuqarolik, oilaviy va mehnatga oid huquqlarni himoya qilish vazifasini faqat qonunda maxsus nazarda tutilgan hollardagina amalga oshirsalar-umumiy sudlar fuqarolar ishtirok etgan barcha huquqiy nizolarni hal qiladilar. Chunki sudlarga bunday ustunlikning berilish ularning Konstitutsiyaga muvofiq demokratik tartibda tashkil topishi bilan amaldagi qonunlarga muvofiq, har tomonlama to'la tekshirish va haqqoniy hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan belgilanadi. Sud

vazifalarini boshqa organlar o'z zimmlariga olishlari odil sudlov to'g'risida Konstitutsiyada belgilangan printsipting buzilishi bo'lib ko'riladi.

Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi printsipti. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov fuqarolarning qonun va sud oldidagi tengligi asosida amalga oshiriladi.

Odil sudlovlik sohasida bu printsipt fuqarolik ishlarining sudda ko'rilishida barcha fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun va sud oldida teng darajada bo'lishlari bilan belgilanadi (FPKning 6-moddasi va "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi).

Barcha fuqarolar uchun sud ishlari yagona tartibda amalga oshiriladi. Fuqarolik ishlarining taalluqligi, ya'ni sudga yoinki biron bir tashkilotga, idoraga taalluqli bo'lishligi bu printsiptni o'zgartirmaydi.

Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi printsipti ikki turdagi mazmunga ega. Bunda birinchidan, yagona, ya'ni hammaga birday bo'lgan sud to'g'risidagi qoida ifodalansa, ikkinchidan, hammaga barobar tadbiq qilinadigan huquqning yagonaligi to'g'risidagi qoida o'z ifodasini topgan.

Yagona sud to'g'risidagi qoida Shundan iboratki, Respublika-mizda millat, jins, ijtimoiy ahvol va boshqa holatlarga qarab ayrim shaxslarga muayyan imtiyozlar beradigan yoki huquqlarni kamsitadigan sudlar yo'q. Konstitutsiyamizda, sudlar to'g'risidagi qonunlarda belgilanganidek, sud tizimi yagona hisoblanadi va sudlar fuqarolar uchun bir xilda ish ko'radilar.

Huquqlarning, jumladan protsessual huquqlarning ham yagonaligi to'g'risidagi qoida qonunlarning hamma teng tadbiq etilishini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning tengligini faqat rasmiygina emas, balki haqiqatda amalda belgiladi va faqat e'lon etish bilangina cheklanmay, barcha fuqarolarga Konstitutsiya bilan va boshqa qonunlar bilan o'rnatilgan huquqlardan teng darajada, birdek foydalanish imkoniyatini ta'minladi. O'zbekiston xalqining millatidan qat'iy nazar, ular O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini tashkil etadilar (Konstitutsiyaning 8-moddasi).

Shuning uchun fuqarolarning huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa biron usulda cheklashga yoxud aksincha ayrim fuqarolarga ularning irqi, millatga mansub bo'lishiga, mulkiy, ijtimoiy holatiga, diniy e'tiqodlariga qarab biron-bir imtiyozlarning berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolar huquqlarining tengligi-ularning huquqlari buzilganida huquqni buzuvchilar davlat, jamiyat, sud oldida teng darajada javobgarlikka tortilishi bilan ham belgilanadi. qonunlarni buzuvchi shaxslar xizmat vazifalaridan va ko'rsatgan xizmatlarida qat'iy nazar, javobgarlikka tortiladilar.

Demokratik huquqiy davlat ko'rishda kishilarning huquq va burchlari uyg'unlashtirilgan tarzda ifodalanishi kerak. Fuqarolar va tashkilotlarning hech qaysilari faqat burchlargagina ega bo'lib huquqlardan mahrum etilishiga va aksincha, huquqlardan foydalanib, majburiyatlardan, burchlardan, chetlanishlariga yo'l qo'yilmaydi. Kimda-kim qonun yoki shartnoma bilan olingan burchlarini bajarishdan bosh tortsa-qonun va sud himoyasidan foydalana olmaydi.

3. Odil sudlovning saylangan va tayinlangan sudyalar tomonidan amalga oshirilishi printsipi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga ega bo'lgunga qadar sudyalar saylanishi asosida faoliyat ko'rsatar edilar. Yangi Konstitutsiyaga ko'ra, sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sudi, qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudidan shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, viloyat xo'jalik sudlari, Toshkent shahar sudi va Xo'jalik sudi, tuman, shahar sudlaridan iborat tuziladigan bo'ldi. Agar muqaddam Respublika Oliy sudi, sudyalari Oliy Sovet sessiyasida viloyat va Toshkent shahar sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlari, a'zolari tegishli xalq deputatlari Sovetlari tomonidan besh yil muddatga saylanadigan bo'lsalar, endilikda bu qoidaga o'zgartirish kiritilib, viloyat, Toshkent shahar va tuman sudlari Prezident tomonidan tayinlanadigan bo'ldi.

Muqaddam tuman, shahar sudyalarini yuqori Sovetlar tomonidan saylanishi tartibi amaliyotda ijobiy natija bermayotganligi to'g'risida huquqshunoslarning yuridik adabiyotlarda o'z fikr-mulohazalarini bayon qilgandilar. Ayrim sobiq sovet xodimlari va deputatlarning sudya tanlash ishlariga asossiz ravishda aralashuvlari agar ularning talablari bajarilmasa, "sudyani saylashda qarshi ovoz berajaklari haqida" ko'p dalillar bo'lgan va bu haqda matbuotlarda ham berilgan. Bunday nuksonlarni bartaraf etish va sud hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Konstitutsiyaning 93-moddasini 10-11-bandlarida Oliy Majlisga Prezident Konstitutsiyaviy sud Raisi va sudyalarini, Oliy sud Raisi va sudyalarini, Oliy Xo'jalik sudi Raisi sudyalarini taqdim etishligi viloyat, tuman, shahar, xo'jalik sudyalarining sudyalarini tayinlash va lavozimlaridan ozod etishga haqli ekanligi to'g'risida ko'rsatilgan. Bunday vakolatning Prezidentga berilishi nihoyatda to'g'ri va adolatli bo'lib, bu o'zbek davlatchilik tarixidan ma'lum, masalan, qo'qon xonligida qozi kalon va boshqa qozilar bevosita xon tomonidan tayinlangan. Demak, bunday qoidaning Konstitutsiyaga kiritilishini davr talabi deb qaralmog'i lozim.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunda sudyalarni saylash, tayinlashda nomzodlar masalasiga ham qator yangiliklar kiritigan. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining 25 yoshga to'lgan, oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosi bo'yicha kamida ikki yillik mehnat faoliyatiga ega bo'lgan, malaka ixtisosini topshirgan fuqarolar tuman (shahar) sudi, Xo'jalik sudi sudyasi etib tayinlanishi; oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosi bo'yicha kamida besh yillik, Shundan sudyalik lavozimiga kamida ikki yillik ish faoliyatiga ega bo'lgan, malaka imtixonini topshirgan fuqaro qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudyasi va Toshkent shahar Xo'jalik sudi sudyasi etib tayinlanishi; agar oliy yuridik ma'lumoti bo'lib huquq sohasida kamida etti yillik, shu jumladan, sudyalik lavozimida kamida besh yillik mehnat faoliyati bo'lib, malaka imtixonini muvaffaqiyatli topshirgan nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy Xo'jalik sudiga sudya etib saylanishlari muhim talablaridandir.

Mustaqil Respublikamiz o'zining qurolli Kuchlariga, alohida Mudofaa vazirligiga, ega bo'lganligi tufayli harbiy sudlarni ham tashkil etish lozim bo'ldi. Shuning uchun bu to'g'rida qonunda alohida ko'rsatildi. Jumladan, harbiy sudya etib tayinlash uchun haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofitserlik tarkibidagi harbiy unvonga ega bo'lgan, yuqorida qayd etilgan talablarga javob beruvchi O'zbekistonning fuqarosi bo'lishi mumkin.

Bulardan tashqari «Sudlar to'g'risida»gi qonunda harbiy sudlar sudyalarini O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni, harbiy nizomlar, harbiy xizmatchilar uchun belgilangan va mazkur qonunda ko'zda tutilgan huquqiy va ijtimoiy himoya choralari tadbiriq etilishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining sud hokimiyati bo'limida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisini va sudyalarini saylash Respublika Oliy Majlisining mutloq vakolatiga kirishi va viloyat, tuman sudlari sudyalarini tayinlash va lavozimidan ozod etish vakolatini Prezidentga berilishi va Shu bilan bog'liq bo'lgan munozaralarga chek qo'ydi.

Muqaddam belgilangan tuman, shahar sudyalarini yuqori Sovetlar tomonidan saylash tartibi amaliyotda ijobiy natija bermaganligi amaliyotda o'z tasdig'ini topdi. Bu masalaning Konstitutsiyada to'g'ri va zamon talabiga asoslangan holda hal etilganligi, kadrlar tanlash bilan bog'liq bo'lgan g'ayriqonuniy harakatlarning oldini olishga imkon beradigan bo'ldi.

Konstitutsiyada sudyalarni tayinlash masalasini Prezidentning vakolatiga berilishi sud tuzilishi qonunchiligida burilish nuqtasi bo'ldi deyish mumkin.

4. Fuqarolik ishlarini sudda qollegial asosida ko'rilishi printsipti.

Fuqarolik va jinoiy sud ishlarini yuritish protsessning rahbariy qoidalariga amal qilgan holda olib borilishi lozimligi qonunda o'z ifodasini topgan. Muqaddam har qanday ishlarni sud birinchi pog'ona (stantsiya) tariqasida xalq maslaxatchilarining ishtirokida ko'rishi belgilangan edi. Amaldagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarga qaraganda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan tashqari barcha birinchi stantsiya sudlarida ishlar sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi. Ishni sudyaning yakka o'zi ko'rganida va hal etganida u sud nomidan ish yuritadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi Raisining qaroriga muvofiq har qanday ish hay'at tomonidan ko'rilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida ishlar uch sudyadan iborat tarkibida ko'riladi.

Ishni kassatsiya tartibida, Shuningdek sud nazorati tartibida ko'rish kamida uch nafar sudyadan iborat tarkibdagi sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ishni ko'rish paytida kelib chiqadigan hamma masalalar sudyaning yakka o'zi tomonidan, ishni sudyalar hay'ati ko'rayotgan hollarda esa, sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Har bir masala hay'at tomonidan hal qilinganida sudyalarning birontasi ham ovoz berishda betaraf qilishga haqli emas. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi.

Ozchilik tomonida qolgan sudya o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli, uning bu fikri ishga qo'shib qo'yiladi, biroq e'lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaslgi yuqoridagi qonunlarda o'z aksini topgan.

Odil sudlovni qollegial tartibda amalga oshirishda sudyalari teng huquqlaridan foydalanadi.

Fuqarolik ishlarini qollegial tartibda ko'rilishi har qaysi sudyaning bilimi va tajribasini hisobga olgan holda fuqarolik ishini to'g'ri va asoslantirib hal qilinishiga yordam beradi.

Fuqarolik ishlarini ikkinchi, ya'ni kassatsiya instantsiya sudida sudning uch sudyasi tarkibida nazorat instantsiyasi sudida esa sudning eng kamida uchta sudya tarkibida qollegial ko'radilar. Sudning maslaxat uyida qaror chiqarishda teng huquqqa ega bo'lib, masalalarni ko'pchilik ovoz bilan hal qiladilar.

Ko'rilayotgan printsip bilan sudlarni chetlatish huquqi to'g'risidagi printsip uzviy bog'liqdir. Bu printsip fuqarolik ishlarini sudda to'g'ri, beg'araz ko'rilishini ta'minlash imkoniyatini berish bilan birga, sud tarkibidan sudyani asossiz chetlatilishiga yo'l qo'ymaydi.

Sudyaning yakka o'zi tomonidan bajargan protsessual harakatlari ham ba'zi hollarda sud tomonidan qollegial tartibda tekshirilishi mumkin. Chunonchi sudya tomonidan noto'g'ri qabul qilingan ariza yuzasidan qo'zg'atilgan fuqarolik ishi bekor qilinishi yoinki butunlay ko'rilmasdan qoldirilishi mumkin.

O'zbekistonning 1978 yilgi Konstitutsiyasida sudlar odil sudlovni amalga oshirishda birinchi bosqichdagi hamma sudlarda fuqarolik va jinoiy ishlarni bamaslaxat (kollegial) tartibda, xalq maslaxatchilari ishtirokida ko'rilishi belgilangan edi. Ko'p huquqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar amaldagi Konstitutsiyada xalq maslaxatchilari instituti o'z ifodasini topmaganligidan taajublangan edilar.

Tajriba Shuni ko'rsatdiki, Konstitutsiya ijodkorlari bu masalani sud amaliyotiga to'g'ri yondashgan holda hal etganligi isbotlandi. Chunki amaldagi Konstitutsiya asosida 1993-yil 2-dekabrda "Sudlar to'g'risida"gi qabul qilingan qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida birinchi instantsiya tariqasida ishlarni xalq maslaxatchilari ishtirokisiz Oliy sudning uch sudyasidan iborat tarkibda ko'rish to'g'risidagi huquqiy me'yor, jinoiy va fuqarolik ishlarini mutaxassis sudyalari tomonidan to'g'ri hal etishga qaratilgan chora bo'ldi.

Amaldagi FPKning yangi jihatlaridan yana biri shuki, ishning mohiyatiga qarab yuqori sudlar, jumladan, qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi Raisining qaroriga muvofiq har qanday ish hay'at tomonidan ko'rilishi mumkinligi belgilangan (FPKning 13-moddasi 2-bandi).

5. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi printsiplari. Sudyalari mustaqil ish ko'rishlari va faqat qonunga bo'ysunishi va odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashuv qonunga muvofiq

javobgarligi to'g'risida Konstitutsiyada maxsus qoida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 112-moddasi).

"Sudlar to'g'risida"gi qonunda sudyalarning mustaqilligini ta'minlash masalasiga ta'rif berilgan bo'lib, bunga ko'ra ularni qonun bilan belgilangan tartibda saylash, tayinlash, ozod qilish; sudyalarning daxlsizligi; odil sudlov qat'iy tartibda amalga oshirilishi; qaror chiqarish chogida sudyalarning maslaxatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab qilishni ta'qiqlashi; sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashish; sudyalarning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik; sudyaga uning oliy maqomiga munosib ravishda davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minot belgilash orqali ta'minlanishi belgilangan.

Bulardan tashqari davlat idoralari va boshqa tashkilotlar, muassasalar, mansabdor shaxslar, fuqarolar sudyalarning mustaqilligini hurmat qilishlari va shunga rioya etish shartligi sudyalarga hurmatsizlik bildirib, shuningdek uni ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi harakatlar qilish amaldagi qonunlarga asosan javobgarlikka sabab bo'ladigan holatlar bo'lib hisoblanadi.

Odil sudlovni amalga oshirish borasida sudyalarning amalga oshirishi lozim bo'lgan protsessual qoidalarni buzishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarining xabarlari, ish bo'yicha hukm, hal qiluv qarori chiqmasdan oldin ishni qanday hal bo'lishi lozimligi haqida fikr bildirish ta'qiqlanadi.

Konstitutsiyaning bu talabi Fuqarolik va Jinoyat protsessual kodekslarida hamda "Sudlar to'g'risida"gi qonunda ham o'z aksini topgan va takomillashtirilgan, masalan, FPKning 7-moddasida aytilishicha, fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudyalarning mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sudyalarning fuqarolik ishlarini qonun asosida, mustaqil Respublikaning huquqiy tushun chasiga muvofiq sudyalarga chetdan ta'sir etishga yo'l qo'yilmaydigan sharoitda hal qilishlari lozim. Ishni ko'rishda tashqi ta'sirotn bo'lmasligi zaminida, ishning qanday hal qilinishi kerakligi to'g'risida hech kimning ko'rsatma bermasligi, bunday huquq yuqori sudga ham berilmaganligi to'g'risidagi qoidalar ko'rsatilgan.

Sudyalarning mustaqilligi qator protsessual normalar bilan ta'minlanadi. Chunonchi: qaror chiqarishda sudyalarning maslaxati sir saqlanadi; ish yuzasidan biron-bir masalani hal etishda, qaror chiqarishda sudya mustaqil bo'lib, o'z fikr va mulohazalarini bildirishlari mumkin. qarorga qo'shilmagan sudya o'zlarini alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqlidirlar.

Sudyalarning fuqarolik ishlari yuzasidan keltirilgan dalillarga baho berishda ish holatlarini aniqlashda, ish va ishga oid boshqa masalalarni ko'rish va hal qilishda qo'llanishi lozim bo'lgan huquqiy me'yorlarni tanlashda mustaqildirlar.

Ishning sudda ko'rilishida prokuror yoki davlat idora organining, ekspert va mutaxassislarining bergan fikrlari, Shuningdek jamoat tashkilotlari fikrlari sud uchun majburiy emas.

Ishni kassatsiya va nazorat tartibida ko'ruvchi yuqori sud idoralari ham sud qarorini bekor qilishda va ishni yangidan ko'rish uchun yuborishda qanday hal qilish lozimligi haqida ko'rsatma berishga haqli emaslar.

6. Sud ishlarining milliy tilda yuritilishi printsiplari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasida O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud qatnashuvchi shaxslarga tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sud ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud ishlari yuritilayotgan tillarni bilmaydigan shaxslarga o'z ona tilida arz qilish, bayonot va ko'rsatuv berish, sud so'zlash va iltimos qilish, shuningdek FPKning 9-moddasida belgilangan tartibda tarjimonning xizmatidan foydalanish huquqi ta'minlanadi.

Sud hujjatlari ishda ishtirok etayotgan shaxslarga ularning ona tillarida yoki ular biladigan boshqa tilda tarjima qilib topshirilishi lozim. Bu huquqiy me'yorning asosiy vazifasi sud ishlarini yuritiladigan tilni bilmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini tegishli darajada himoya etilishini kafolatlaydi. Sud ishlarining milliy tilda yurgizilishi qoidaga ko'ra, sud ishlarini yuritilishida ishtirok etuvchilarga va sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslarga jarayonni tushun arli bo'lishini va Shu bilan birga sud ish ko'rishning tarbiyaviy xarakterda bo'lishini ta'minlaydi. Bu qoida jarayonning barcha bosqichlariga tegishli bo'lib, uning buzilishi sudni hukmi, hal qiluv qarorini bekor qilinishiga asos bo'ladi.

Yuqorida qayd qilingan hollardan ko'rinadiki, agar ishda qatnashuvchi shaxsning ishi, masalan, tojik millatiga mansub aholi ko'pchilikni tashkil qiladigan joydan bo'lsa, shu yerli xalqning tilida ish ko'rilishi, buning uchun lozim hollarda tarjimon bilan ta'minlash masalasi turadi. Bu qoidaning zaminida Respublikani milliy siyosatga bo'lgan munosabatini muhimligini ko'rsatuvchi holatdir.

Sud ishlarini yurgiziladigan til to'g'risidagi printsiplarning buzilishi FPKning 314-moddasi 3-bandida ko'rsatilganidek, sud hal qiluv qarorini albatta bekor qilinishiga asos bo'ladi.

7. Sud ish ko'rishning oshkoroligi printsiplari. Qonun bilan belgilangan ayrim istisnolardan tashqari, barcha hollarda, ishlarning hamma sudlarda ochiq ko'rilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasi bilan belgilangan va kafolatlangan. Shunga binoan fuqarolik sud ishlari oshkora ravishda, fuqarolarning ishtirokida ko'riladi.

Fuqarolik sud ishlarining ochiq, oshkora ko'rilishi ishda ishtirok etuvchilarga, shuningdek sud zalida hozir bo'lgan boshqa shaxslarda ham, katta ta'surot qoldirib, sud jarayonining tarbiyaviy rolini ta'minlaydi.

Ishlarning ochiq ko'rilishi fuqarolarga sudyalarning ishlari bilan bevosita tanishish, ularning faoliyatini xalq nazorati ostiga olish imkonini beradi va shuning o'zi bilan fuqarolik ishlarining to'g'ri hal etilishini ta'minlaydi.

FPKning 10-moddasida ko'rsatilganidek, barcha sudlarda ishlarni ko'rish, oshkora olib boriladi. Bunda ba'zi istisnolar belgilangan. Chunonchi: qonunda belgilanishicha, davlat sirini saqlash manfaatlar yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayot sirlariga oid ma'lumotlarning fosh qilinishiga talab

qilingan barcha hollarda hamda tijorat sirlarini saqlash bilan bog'liq bo'lsa, farzandlikka olishning sir saqlanishiga oid ma'lumotlarni va yozishmalarni sirini fosh bo'lmashligi, sudning asoslangan ajrimiga binoan sudda ish ko'rish butunlay yoki qisman yopiq ravishda o'tkaziladi.

Sud majlisida ish yopiq ko'rilsa, bu majlisda ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning vakillari sudda ishni ko'rishda qatnashishga yo'l qo'yilgan jamoat tashkilotlari vakillari, zarur hollarda esa guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ham qatnashadilar.

Ishning yopiq sud majlisida ko'rilishi to'g'risidagi ajrim sudya (sud) tomonidan chiqarilishi tegishli ravishda asoslantirilgan bo'lishi kerak. Yopiq sud majlisida qabul qilingan sud qarorlari hamma hollarda oshkora e'lon qilinadi.

Sud ishlarining yuritilishini belgilaydigan ikkinchi guruh tamoyil (printsip)lar tubandagilardan iborat:

1) ishlarni amaldagi qonunlar asosida hal qilish printsiplari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida ko'rsatilganidek, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

Davlat va jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlarga rioya qilishga majburlanadilar. FPKning 12-moddasini 1-qismida bu konstitutsion huquqiy me'yor o'z ifodasini topgan. Bu qonunda ko'rsatilishicha, sud ishlarini Konstitutsiyaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan hal qilishi lozim. Sud shuningdek qonunga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatlarini huquq normalarini ham qo'llaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari tomonidan o'zlariga berilgan huquq doirasida chiqarilgan huquqiy hujjatlarni ham tadbiq qiladi.

Qonunlarning sud tomonidan to'g'ri tadbiq etilishi alohida ahamiyatga egadir. Fuqarolik sud ishlarini to'g'ri va odilona hal qilinishi fuqarolik, oila, mehnat va boshqa huquqiy me'yorlarning to'g'ri tadbiq etilishi yo'li bilan belgilanadi.

Fuqarolik sud ishlarini qo'zg'atilganda muayyan qonunning bo'lmashligini ko'rsatib, fuqarolik huquqlarini sud tomonidan himoya qilinishini rad etishga qo'yilmaydi. FPKning 12-moddasi 3-qismida ko'rsatilganidek, nizoli munosabatni tartibga soladigan qonun bo'lmagan taqdirda, sud shu munosabatga o'xshash munosabatni tartibga soladigan qonunni tadbiq etadi. Bunday qonun ham bo'lmagan taqdirda esa sud, Respublika qonunlarining umumiy asoslari va ma'nosiga tayanadi.

Sud fuqarolik ishlarini qonun qiyoslashi (analogiyasi) yoki huquq qiyoslashi (analogiyasi) bo'yicha faqat nizoli munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq (masalan, fuqarolik, mehnat, oila huquqlari) normalari bo'lmagandagina hal qilinadi. Fuqarolik ishlarini protsessual huquq normalari qiyoslashi (analogiyasi) bo'yicha hal qilish qonunda belgilanmagan.

Fuqarolik jarayonida ishlarning amaldagi qonunlar asosida hal qilinishi printsiplari-ishlarning protsessual huquq normalariga aniq rioya qilganligi holda

ko'rilishi, ishlarning hal qilinishida moddiy huquq normalariga qat'iy amal qilinishi, sud ishida qatnaShuvchi taraflarning protsessual harakatlari ustidan sud nazoratini olib borilishi, sudning chiqargan hal qiluv qarorlarining qonunga muvofiq bo'lish-bo'lmasligining kassatsion va nazorat tartibida tekshirilishning majburiyligi, sudning o'z tashabbusi bilan ba'zi protsessual harakatlar qilishga huquqli va majbur bo'lishligi, qonunlarning ayrim fuqarolar va tashkilotlar tomonidan buzilishi hollari aniqlanganda-sudning bu to'g'rida xususiy ajrimlar chiqarishi bilan ta'minlanadi.

2) Ishni holisona (ob'ektiv haqiqatni) aniqlashga qaratilgan printsipti.

Ishni holisona (ob'ektiv haqiqatni) aniqlashga qaratilgan printsipti FPKning 15-moddasida belgilangan. Bu qonunda aytilishicha, sud taqdim qilingan materiallar va bayonotlar bilan cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatini, taraflarning huquq va burchlarini har taraflama, to'liq va holisona ravishda aniqlash uchun qonunda ko'rsatilgan hamma choralarni ko'rishga majburdir.

Bu printsipt mazmunida fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilishda sud haqiqatda mavjud bo'lgan holatlarni aniqlash uchun choralar ko'rish, taraflar o'rtasidagi munosabatlarni aniq belgilashi, sudning qarori sud majlisida har taraflama tekshirilgan va aniq isbotlangan holatlarni asoslangan bo'lishi to'g'risidagi qoida yotadi.

Ishni holisona, haqiqatni belgilash maqsadlarida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va burchlarini tushun tirish, muayyan protsessual harakatlar qilish yoki qilmaslikning oqibatlarini to'g'risida ularni ogohlantirish, hamda ularga o'z huquqlarini amalga oshirishlariga yordam ko'rsatishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual huquqi hamda huquqiy me'yorlarning aksariyati qandaydir shaklda bo'lmasin, fuqarolik ishini haqiqiy holatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida ishni holisona hal qilishga qaratilgan printsiptni amaldagi ko'rinishidir. Bu qoida fuqarolik jarayonining hamma bosqichlariga tegishlidir.

3) Erkin huquq prinsipi.

Fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlari buzilganida, bu huquqlarning qo'riqlanishi, huquqlarning tiklanishi to'g'risida odatda sud organlariga murojaat qilinadi. Bunday hollarda moddiy huquq hamda uni himoya qilish vositalari bo'lgan protsessual huquq me'yorlarini ishlatish huquqi fuqarolik jarayonining erkin huquqliligi, ya'ni jarayondagi erkinlik huquqi deb ataladi.

Erkinlik huquqining mazmuni quyidagilardan: 1) da'vo qilish huquqi; 2) da'vodan voz kechish huquqi yoki da'voni e'tirof etish (tan olish) huquqi; 3) o'zaro kelishib ishni tamomlash huquqi; 4) sudning qarori ustidan shikoyat qilish; 5) sud qarorini majburiy ravishda bajartirishni talab qilish huquqlaridan iborat bo'ladi.

Sud fuqarolik ishini ko'rishga quyidagi hollarda kirishadi:

- o'zining huquqini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun murojaat qiluvchi shaxsning arizasi bo'yicha;
- prokurorning arizasi bo'yicha;

- davlat boshqaruv idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ayrim fuqarolarning arizalari bo'yicha, agarda qonunga ko'ra ular boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin bo'lsa (FPKning 5-moddasi).

Yuqorida keltirilgan qonun fuqarolarning huquqi buzilganda uning qo'riqlanishini iltimos qilish huquqini mazkur shaxsning o'ziga berishi bilan birga, buzilgan huquqlarning himoya qilinishi maqsadlarida, fuqarolik jarayonida prokurorning ishtirok etishi, fuqarolik ishining bevosita sud, davlat va jamoat tashkilotlari tashabbusi bilan qo'zg'atilishi mumkinligini belgilaydi.

Moddiy huquqi buzilgan fuqaro erkin huquqlik printsipligiga binoan da'vo qo'zg'atish yoki qo'zg'atmaslik huquqiga ega. Tashkilotlarning huquqlari buzilishi hollarida esa-mazkur tashkilotlarning mansabdor shaxslari mulkiy bo'lgan huquqni qo'riqlash maqsadlarida, da'vo qo'zg'atish huquqlariga ega bo'libgina qolmasdan, balki bunday da'voni qo'zg'atishga majburlirlar.

Bu printsipligiga muvofiq, da'vogar o'z da'vosining predmetini, hajmini, huquqiy asosini belgilaydi; ikkinchi taraf-javobgar esa, da'voni tan olish yoki da'voga qarshi bo'lib, da'voni inkor etish huquqiga egadir.

Sudda qo'zg'atilgan fuqarolik ishi taraflarning o'zaro keliShuvlari bo'yicha tamomlanishi ham mumkin. Ammo taraflarning, ya'ni da'vogar va javobgarining o'z huquqlari va burchlarini amalga oshirish-oshirmaslik to'g'risidagi ixtiyoriy harakatlari o'zaro kelishuvlari sud uchun majburiy emas. Sud davlat va jamoat manfaatlari talab qilinganida yoki biron-bir shaxslarning huquqlari buzilishiga qaratilgan hollarda da'vodan voz kechishni yoki da'voni tan olishni hal qilmasligi ham mumkin. Taraflarning da'vo ishini o'z roziliklari bo'yicha butunlay tamomlashlari to'g'risidagi keliShuvlari ham sud uchun majburiy emas.

Fuqarolik ishida qatnashuvchi da'vogar va javobgarlar sudning hal qiluv qarori ustidan, shuningdek yuqori sudlarning ajrimlari ustidan shikoyat berish va bermaslik huquqiga egadirlar. Ammo ba'zi hollarda fuqarolarning, tashkilotlarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish zarur bo'lgan hollarda, qonuniy kuchga kirmagan sudning hal qiluv qarori ustidan prokuror kassatsiya protesti keltirishi mumkin. Ishda ishtirok etuvchilarning biri tomonidan shikoyat berilganida yoki bir shaxsning yoki bir necha shaxslarning manfaatlari ko'zlanib, protest keltirganida, yuqori sud faqat bu shikoyat va protestlar bilan cheklanib qolmasdan, ishning hamma holatini butunlay tekshirishga majbur bo'ladi.

Erkin huquq printsipligini da'vo ishining qo'zg'atilishidan boshlab to da'vo yuzasidan chiqarilgan qarorlarning ijro etilishigacha qo'llanib, ishda ishtirok etuvchilarga tegishli protsessual huquqlarning qonunlar bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

4) TortiShuvchilik printsipligini.

Fuqarolik jarayonida bu printsipligini tubandagilardan iborat: birinchidan, ishda ishtirok etuvchi har qanday shaxs fuqarolik ishi to'g'risida arz qilishi, bayonotlar berishi, e'tiroz bildirishi, iltimoslar qilishi, sudga dalillar topshirish bilan o'zining haqligini isbotlashi, Shu mazmuni bo'yicha o'z fikrlarini aytishi

mumkin; ikkinchidan, prokuror ish holatlarini isbotlashi, ishning ayrim masalalari yuzasidan, Shuningdek hamma ish bo'yicha sudga o'z fikrini berishi mumkin; uchinchidan, sud holisona usul bilan haqiqatni belgilash maqsadida o'z tashabbusi bilan dalillar to'plash huquqiga egadir.

Tortishuvlik printsiptiga muvofiq har bir taraf o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatilgan holatlarni isbotlashi kerak, Shuning uchun taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar zarur dalillarni sudga keltiradilar. Agar taqdim etilgan dalillar etarli bo'lmasa, sud taraflarga va ishda ishtirok qiluvchi boshqa shaxslarga qo'shimcha dalillar taqdim etishni taklif qiladi. qo'shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirsa, sud ularning iltimosiga ko'ra, dalillarni to'plashda ularga yordam berishlari mumkin (FPKning 57-moddasi).

Yuqorida keltirilgan qonundan ma'lum bo'lishicha, tortishuvchilik printsipti taraflarning ish holatlarini isbotlash borasida bo'lgan huquq va burchlarining sudning ishni hal qilish uchun zarur bo'lgan holatlarni aniqlashga bo'lgan huquq va burchlari bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishligini bildiradi. Ishda qatnashuvchi taraflarning o'z talablari va e'tirozlarini isbotlash uchun keltirilgan dalillar sud tomonidan tekshiriladi va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa faktlar bilan solishtiriladi hamda zarur hollarda taraflardan boshqa qo'shimcha dalillar keltirish talab qilinadi yoki sud bu dalillarni to'plashda ularga yordam ko'rsatadi.

Tortishuvchilik printsipti-sudning chiqargan hal qiluv qarorining qonuniyligini va asosli bo'lishligini kassatsiya tartibida tekshiruvchi ikkinchi instantsiya sudida ham qo'llaniladi. Binobarin, taraflar kassatsiya shikoyatni yoki prokurorning kassatsiya protestining rad qilinishini ko'zlab o'zlarining bayonotlarini berishga ham haqli bo'ladilar.

Qonun tortishuvchilik printsiptining amalga oshirilishi printsiptini ta'minlash maqsadlarida fuqarolik ishlarini ko'ruvchi va hal qiluvchi sudlarga muayyan burchlar ham yuklaydi. FPKning 15-moddasida belgilanganidek, sud taqdim qilingan hujjatlar va bayonotlar bilangina cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatini, taraflarning huquq va burchlarini to'liq va holisona ravishda aniqlash uchun qonunda ko'rsatilgan hamma choralarni ko'rishga haqli.

Sud ishda ishtirok qilayotgan shaxslarga ularning huquq va burchlarini tushun tirish, protsessual harakatlar qilishi yoki qilmasligining oqibatlarini to'g'risida ularni xabardor qilishi hamda ishda ishtirok qilayotgan shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatishi lozim.

5) Fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqliligi printsipti.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ko'rsatilganidek, fuqarolar iqtisodiy, siyosiy, sotsial va madaniy hayotimizning barcha sohalarida teng huquqli bo'lishlari qonun oldida tengligi ko'rsatilgan. Fuqarolik jarayonida ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqli bo'lishlari Respublikamiz sudining demokratik asoslarga asosan tuzilganligidan dalolat beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan konstitutsion printsipga muvofiq fuqarolik ishida ishtirok etuvchi shaxslar fuqarolik ishlarining yuritilishida teng huquqdan foydalanadilar. Ular tenglik asosida sudda har turli iltimos qilishlari, ishning hamma materiallari bilan tanishishlari, barcha protsessual harakatlarning qilinishida hozir bo'lishlari, sud majlislarida shaxsan yoki vakillari orqali ko'rsatma berishlari, suddan tushun tirishlar olishlari, lozim hollarda esayordamlar ham olishlari, sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan shikoyatlar berishlari, hal qiluv qarorlarining ijro etilishida ishtirok etishlari mumkin. Fuqarolik ishida har ikki taraf ham teng darajada da'vo qo'zg'atish-qo'zg'atmaslik, da'vo talablariga e'tiroz bildirish-bildirmaslik, da'voni butunlay yoki qisman tan olish yoki butunlay tan olmaslik huquqiga egadirlar. qonun da'vogarga qanday huquqlar bergan bo'lsa, masalan, da'vo qo'zg'atish yoki da'vodan to'la yoki qisman voz kechish huquqlari berilgan bo'lsa, javobgar ham o'z navbatida da'voga qarshi bo'lish, da'voni rad etish uchun dalillar keltirish, da'voni to'la yoki qisman tan olish huquqiga ega bo'ladi. Taraflar sud majlisi davomida ham teng darajada bo'lib, so'zga chiqish, ko'rsatuvlar, bayonotlar berish huquqlariga ega bo'ladilar.

6) Ishni og'zaki ko'rish prinsipi.

Bu printsipt sudda ishtirok etuvchi taraflardan protsessual harakatlarni og'zaki ravishda ifodalashni talab qiladi. Sud ishni og'zaki ko'rganda taraflar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, Shuningdek ishda ishtirok etuvchi prokuror bilan bevosita ish munosabatida bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fuqarolik ishiga izohlar yozma ravishda taqdim etilgan bo'lsa ham, ammo suddagi ish materiallari og'zaki ravishda tekshiriladi. Sud majlisida og'zaki tekshirilgan vaqtda aniqlangan va tasdiqlangan materiallarga sud qaroriga asos qilib olinadi. Sud majlisida aytilgan so'zlarning hammasi sud majlisini bayonnomasiga yozilishi og'zakilik printsiptga xilof kelmaydi. Aksincha sud majlisida aytilgan so'zlarning bayonnomasiga yozilmasligi sud qarorining qonuniy va asosli bo'lishini tekshirish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Fuqarolik jarayonining og'zakiligi printsiptga muvofiq sud taraflarning og'zaki bayonotlari, izohlarini, guvohlar, ekspertlar va mutaxassislarning og'zaki ko'rsatuvlarini eshitadi. Sud majlisida ko'riladigan barcha masalalar og'zaki muhokama qilinadi. Bunday usul sudyalarga ish holatlarini oydinlashtirishlariga va ularda ish yuzasidan to'g'ri ichki tushun cha paydo bo'lishiga imkon beradi. Sudga taqdim etilgan barcha yozma hujjatlar, chunonchi ekspertlarning yozma xulosalari va boshqa yozma dalillar og'zakilik printsipti talablariga ko'ra sud majlisida ko'rilishi, og'zaki muhokama qilinishi lozim bo'ladi. Fuqarolik ishini sudda og'zaki ko'rilishi haqida hamda agar ishni ko'rish davomida sudya almashtirilgan hollarda, bu ishni qaytadan ko'rilishi FPKning 11-moddasida ko'rsatilgan.

7) Sudda ish ko'rishning bevositaligi prinsipi.

Bu printsiptga binoan fuqarolik ishlarini tekshiruvchi va ish yuzasidan qaror chiqaruvchi sudyalalar ish materiallari bilan shaxsan tanishishlari, guvohlarning bergan guvohligini, ekspertlar xulosalarini, mutaxassislarni fikrini eshitishga

yozma dalillar bilan tanishishga, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishga (FPKning 11-moddasi 1-qismi) dalillarni tekshirishlari va ularni sud majlisida bevosita o'zlari, Shuningdek ishda qatnaShuvchilarning ishtirokida tekshirishi lozim bo'ladi.

Bu printsipga muvofiq sud fuqarolik huquqiy nizolarni hal qilishda taraflarning huquqlari paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki tugashi bilan bog'liq bo'lgan faktlarni bevosita aniqlaydi. Sud umumiy qoida bo'yicha topshirilgan hujjatlarning asl nusxalarini ko'radi, faqat istesno tariqasidagi bunday hujjatlarni sud majlisiga topshirish mumkin bo'lmagandagina, hujjatlarning ikkinchi nusxa (kopiya)laridan foydalanishi mumkin.

Fuqarolik jarayoni bevositalik printsipga asoslangan bo'lsa ham, ammo ayrim hollarda, bu qoidadan chetga chiqishga qonun yo'l qo'yadi. Masalan, guvoh ish ko'rilayotgan sudda bevosita so'roq qilinishi lozim bo'lsa ham, ammo u ish ko'rayotgan shahar yoki tumandan uzoq joyda yashaganida, ishni ko'ruvchi sudning maxsus topshirig'i bo'yicha, bu guvoh o'zining turadigan joydagi sud tomonidan mazkur ish mazmuni bo'yicha so'roq qilinishi mumkin.

8) Ishning uzluksiz ko'rilishi prinsipi.

Bu printsipt sud ishining boshlanishidan to oxirigacha, ya'ni sudning hal qiluv qarori chiqarilishiga qadar uzluksiz sud majlisida va sudning o'zgarmagan tarkibida ko'rilishini va bu ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqarilmaguncha boshqa ishlarning ko'rilmasligini talab qiladi.

Jarayonning uzluksizligi printsipga binoan ishning ko'rilishi tamom bo'lgan zamon darhol qaror chiqarilishi va uni e'lon qilinishi lozim bo'ladi. Ko'rilgan ish yuzasidan chiqarilgan qarorni e'lon etmasdan turib boshqa ishni ko'rishga sud haqli bo'lmaydi. Faqat ayrim hollardagina, istesnolar sifatida, murakkab ishlar bo'yicha sudning asoslantirilgan qarorining tayyorlanishi uch kundan oshiq bo'lmagan muddatga kechiktirilishi mumkin bo'ladi.

Sud qarori chiqarishda faqat sudni mazmunan boshidan oxirigacha ko'rishda ishtirok etgan sudyalargina qatnasha oladilar. Har bir ish bo'yicha sud majlisi, dam olish uchun belgilangan vaqtdan tashqari uzluksiz davom etadi. Sud uzluksiz boshlangan ishning ko'rilishini tamomlanmasdan yoki uni ko'rishni boshqa vaqtga qoldirmasdan turib boshqa ishni ko'rishga haqli emaslar. Agar ishning ko'rilishi davomida sud tarkibi o'zgarsa-ishning ko'rilishi yangidan boshlanadi.

9) Sud himoyasidan foydalanish imoniyatining ta'minlanishi prinsipi.

Bu printsipga asosan O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat boshqaruv idoralari va mansabdor shaxslarning har qanday g'ayriqonun iy xatti-harakatlaridan, shuningdek sha'ni, qadr-qimmat, hayoti va sog'lig'i, shaxsiy erkinligi va mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Qonunda muassasa, korxona va tashkilotlar ham sud himoyasida bo'lishiga haqliligi ko'rsatilgan. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Sud himoyasidan foydalanish imkoniyatining berilishi prinsipi avvalo sud xarajatlarining ko'p bo'lmasligidan, ba'zi fuqarolarning sud xarajatlarini

to'lashdan sud tomonidan ozod qilinishidan yoki ularning to'lanishi kechiktirilishi bilan ifodalanadi. Fuqarolarga sud himoyasidan foydalanishda qo'layliklar tug'dirish maqsadida sud idoralari xalqning yashash joylariga mumkin qadar yaqinlashtirilib joylashtirilgan bo'ladi.

Fuqarolik ishi bo'yicha arizaning qabul qilinishi to'g'risidagi iltimos sud tomonidan faqat ayrim, qonunda maxsus nazarda tutilgan hollardagina rad qilinishi mumkin.

Fuqarolik jarayonidan fuqarolik ishining sudda faqat advokat orqali yurgizilishi shart emas. Sudya ish yuzasidan sudga murojaat qiluvchiga uning huquq va burchlarini tushun tiradi, da'vodan voz kechishi oqibatlari to'g'risida, shuningdek boshqa protsessual harakatlarning oqibatlari to'g'risida tushun tirishlar beradi.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik protsessining tamoyillari tushunchasiva mohiyati.
2. Fuqarolik protsessining tamoyillari tizimi va tasnifi.
3. Odil sudlovning faqat sud tomonidan hamda fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishi tartibi.
4. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi tamoyilining mazmuni.
5. Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi, sud ishlari yuritiladigan til, sudda ish ko'rishning oshkoraligi tamoyilining ahamiyati.
6. Sudda ishni ko'rishning bevositaligi va og'zakiligi, ishlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilish, fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay'at tomonidan ko'rilishi, ishning haqiqiy holati, taraflarpiig huquq va majburiyatlari sud tomonidan aniqlanishi, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrim va qarorning majburiyligi.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZUSI: FUQAROLIK PROTSESSIGA OID HUQUQIY MUNOSABATLAR VA ULARNING SUB'EKTLARI

Tayanch iboralar: fuqarolik protsessiga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni vujudga kelish asoslari, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning sub'ektlari va ularning tasnifi, odil sudlovni amatga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy holati, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatlari.

Bizga ma'lumki huquqiy munosabatlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar huquqiy munosabatlar deb aytiladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarnining, ya'ni fuqarolar bilan fuqarolar, tashkilotlar bilan fuqarolar o'rtasida bo'ladigan shaxsiy, mulkiy, oila huquqi, mehnatga oid, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan, ayrim tashkilotlar bilan fuqarolar o'rtasidagi xo'jalik munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarning suda ko'rilishi va hal qilinishida qonunda belgilangan hollarda sud va boshqa organlar qarorlarining ijro qilinishida ishtirok etuvchilar o'rtasida bo'ladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Bunday huquqiy munosabatlar sud bilan fuqarolik ishi yuzasidan bo'lgan da'vogar o'rtasida, sud bilan javobgar o'rtasida, sud bilan prokuror va boshqa organlar o'rtasida, sud bilan taraflarning vakillari o'rtasida bo'lib, fuqarolik protsessual huquqiy normalar bilan tartibga solinganligi tufayli fuqarolik huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Albatta har bir jismoniy yoki yuridik shaxs huquqiy munosabat sub'ekti bo'lishi uchun qonun hujjatlarda belgilangan tartibda huquq yoki muo mala layoqatiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim yuridik adabiyotlarda belgilanishicha fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Bularga birinchidan, sud har bir fuqarolik protsessual munosabatda, albatta ishtirok etuvchi sub'ekt bo'lib ko'riladi. Bunday munosabatlar yuqorida aytganimizdek, sud bilan protsessda ishtirok etuvchilarning bir o'rtasida, masalan, sud bilan da'vogar o'rtasida, sud bilan javobgar o'rtasida va protsessning boshqa ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladi. Lekin bo'nday munosabatlar sud bilan progtsessning boshqa ishtirokchilari o'rtasida bir vaqtning o'zida vujudga kelmaydi. Shuni ta'kidlash o'rinliki protsessual munosabatlarda har doim faqat ikkita sub'ekt bo'lib, ulardan biri albatta sud bo'ladi. Shuningdek fuqarolik protsessining ishtirokchilari bilan protsessual huquqiy munosabatlar faqatgina sud tomonidan fuqarolik ishini qo'zg'atish bilban vujudga kelishi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bir so'z bilan aytganda sud bilan fuqarolik protsessii ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar suddan tashqari holatlarda vujudga kelmaydi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar faqatgina huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga kirisha oladi. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi ya'ni protsessual huquqiy

munosabatlar ishtirokchilari bilan sudning huquqiy munosabatga kirishishi o'z navbatida sub'ektlarning bir biri bilan bog'likligini ham belgilaydi. Masalan, sudning da'vogar bilan protsessual huquqiy munosabatga kirishishi albatta sudning javobgar bilan huquqiy munosabatga kirishishi uchu nasos bo'lib hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda fuqarolik protsessual huquqiy munosabat tarkib jihatdan murakkab huquqiy munosabat bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat sub'ektlari protsessning barcha bug'inlarida ya'ni protsessual kodeksda belgilangan tartibda huquq va majburiyatga ega bo'ladi va ular o'z protsessual huquq va majburiyatini ushbu kodeks asosida amalga oshiradi. Masalan, protsessual huquq deganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar ko'rilayotgan ish materiallari bilan tanishishlari, ulardan ko'chirmalar olishlari, rad etish to'g'risida arz qilishlari, dalillarni tekshirishda ishtirok etishlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yoki odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxslarga savollar berishi, sudga og'zaki yoki yozma tushun tirishlar berish, iltimoslar taqdim qilish, sudning chiqargan qarorlarigsha nisbatan o'zining norziligini shikoyat tartibida amalga oshirishga egadirlar.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat ishtirokchilarning majburiyati ham fuqarolik protsessual kodeksda belgilab qo'yilgan. Masalan, ishda ishtirok etuvchi shaxs sud tomonidan JKning 238-240-moddalari asosida ogohlantiriladi ya'ni sudga faqat to'g'ri gapirishni ya'ni yolg'on ko'rsatma bermaslik haqida ogohlantiriladi. Bundan tashqari protsess ishtirokchilari sudyaning harakatlariga quloq solishlari, berilgan savollarga to'g'ri javob beri shva h.k. ni ta'kidlash mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tarkibi FPK ning 33-moddasida va yuqorida qayd qilingan huquqlar boshqa moddalarda ham belgilab qo'yilgan.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik protsessiga oid huquqiy munosabatlar tushun chasi.
2. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni vujudga kelish asoslari.
3. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning sub'ektlari va ularning tasnifi.
4. Odil sudlovni amatga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy holati.
5. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushun chasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatlari.

3-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSIDA TARAFLAR

Tayanch iboralar: fuqarolik protsessida taraflar tushun chasi, taraflarning protsessual huquq va burchlari, fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etish, birgalikda ishtirok etiganing maqsadi, asoslari va uning turlari, birgalikda ishtirok etuvchilarning protsessual huquq va majburiyatlari, ishga daxldor bo'lmagan taraflar tushunchasiva ularni almashtirish tartibi, protsessual huquqiy vorislik tushun chasi, asoslari va protsessga kirishish tartibi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud-huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining me'yor-normalarini sharh-lash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabani fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Bizga ma'lumkin fuqarolik protsessining asosiy ishtirokchilari da'vogar va javobgar hisoblanadi va aynan shu ikki sub'ekt o'z o'rnida fuqarolik protsessining asosiy ishtirokchilari taraflari bo'ladi. Shuningdek fuqarolik protsessining taraflari sifatida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari ham bo'lishi mumkin.

Fuqarolik protsessida taraflarning ishtirok etishi ularning sudga murojaat etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Murojaat etishning mazmuniga ko'ra ham ularni bir necha turga bo'lish mumkin. Masalan, ijtimoiy munosabatlarning mulkiy xarakterga ega bo'lishi hamda nomulkiy xarakterdagi munosabatlarda ya'ni sha'n qadr qimmatga etkazilgan huquqlarni buzish holatlarida ham har doim huquqi buzilgan shaxsning sudga da'vo qo'zg'atishdan iborat bo'ladi. Shuningdek davlat organlari yoki mansabdor shaxslarining hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining noqonuniy xatti xarakatlari tufayli buzilgan huquqlarni tiklash bo'yicha sudga shikoyat bo'yicha murojaat etgan shaxslarni, Shu bilan birga fuqarolik protsessiual tartibda fuqarolar bilan bog'liq yuridik faktlarni aniqlash to'g'risidagi nizosiz ishlar bilan bog'liq ariza bilan murojlat etgan shaxslarni ham ko'rish mumkin.

Fuqarolik protsessual huquqning asosiy talablaridan biri uning ishtirokchilari hamda uning taraflari bo'lib, ular hamma vaqt o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan vijdonan, halol, insofli tartibda foydalanishga majburdirlar. Shuningdek fuqarolik protsessi ishtirokchilariga jarayonni cho'zish yoki buzish maqsadida har qanday g'ayriqonuniy harakatlarni qilishga sud yo'l qo'ymaydi.

Taraflar ham o'z navbatida ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibiga kiradi va ularning protsessual asoslari FPK ning 33-moddasida hamda ushbu ishtirokchilarning protsessual huquq va majburiyatlari FPKning 34-modasida belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi taraf deb FPK ning 39-moddasida alohida ta'rif berilgan. Ularning protsessual huquq va majburiyatlari esa FPKning 40-moddasida belgilangan. Shuningdek fuqarolik protsessual qonunchilik fuqarolik protsesining ishtirokchisi hisoblangan taraflarga protsesda birgalikda ishtirok etishni ham belgi-laydi va buning huquqiy asosi FPKning 41-moddasida belgilangan. Shu bilan birga fuqarolik protsessual qonunchilik ishda taraf sifatida ishtirok etayotgan shaxslarga protsessual huquqiy vorislikni olishga ham yo'l qo'yadi va u FPKning 43-moddasida mustahkamlangan.

Jarayonda, ya'ni fuqarolik ishining ko'rilishida teng darajada ishtirok etish huquqi taraflarning bir qator protsessual huquqlardan bab-baravar foydalanishlarini bildiradi. Bu printsipga rioya qilingani holda taraflar ish materiallari bilan tanishish, ish materiallaridan ko'chirmalar va nusxalar olish, chetlatishni bildirish, dalillar keltirish yoki dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga savollar berish, sudga iltimoslar qilish, og'zaki va yozma bayonotlar berish, ishning sudda ko'rilishi davomida vujudga kelgan barcha masalalar yuzasidan o'z vajlarini keltirish va fikrlarini aytish, ikkinchi tarafning iltimoslariga, ko'rsatgan vajlari va iltimoslariga qarshi e'tirozlar bildi-rish, sudning hal qiluv qarori va ajrimlari ustidan shikoyatlar berish, hal qiluv qarorining majburiy ravishda ijro etilishini talab qilish sudning hal qiluv qarorlari ijro etilishida sud ijrochisining muayyan harakatlari-da qatnashish, Shuningdek qonun bilan berilgan boshqa protsessual huquqlardan keng darajada foydalanishga haqli bo'ladilar.

Nizoli huquq to'g'risidagi masalalar sudda ko'rilishi va hal qilinishida taraflar jarayonning boshqa ishtirokchilaridan farq qilib, o'zlariga xos huquqlarga ega bo'ladilar. Chunonchi: da'vogar da'voning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga yoxud da'vodan voz kechishga, da'vogar esa da'voga iqrор bo'lishga haqli bo'ladi.

Taraflar jarayonning har qanday davrida ishni kelishuv bitimi bilan tamomlashlari mumkin (FPKning 40-moddasini 4-qismi). Taraflarning bu huquqlari qonunga binoan sud nazorati ostida amalga oshiriladi.

Sud da'vogarning da'vodan voz kechishini, javobgarining da'voga iqrорligini basharti, bu harakatlar qonunga xilof bo'lsa yoki kimning bo'lmasin huquqini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzsa, qabul qilmaydi va taraflarning keliShuv bitimini tasdiqlamaydi.

Agar da'vodan voz kechish, da'voga iqrор bo'lish, kelishuv bitimi taraflarning erkiga, qonunga, davlat manfaatlariga xilof bo'lsa, taraflardan birining yoki boshqa shaxslarning manfaatlariga zarar keltiradigan bo'lsa, sud ish yuzasidan to'plangan dalillarni tekshirishni davom ettiradi va mazkur ishning holatlariga muvofiq tarzda qaror chiqaradi.

Sud taraflarga tegishli bo'lgan huquqlarning amalga oshirilishida ularga har tomonlama yordam beradi, huquqlarini tushun tirishda muayyan protsessual harakatning qilinishi yoki qilinmasligining oqibatlari to'g'risida ogohlantiradi.

Taraflar o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan vijdonan, insofli ravishda foydalanishga majburlar. Jarayonni cho'zish yoki buzish maqsadida har qanday g'ayriqonuniy harakatlar qilinishiga sud yo'l qo'ymaydi.

2-§. Protssesual ishtirokchilik va uning turlari

Protssesual sherik ishtirokchilik deb, muayyan fuqarolik ishining sudda ko'rilishida har ikki tarafdin ham bir necha da'vogarlar yoki bir necha javobgarlar ishtirok etishiga aytiladi.

FPKning 41-moddasida ko'rsatilganidek, talab qo'yilgan ariza bir yoki bir necha da'vogarlar tomonidan birgalikda yoxud bir yoki bir necha javobgarlarga nisbatan qo'zg'atilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan qonunda belgilanganidek, da'vogarning o'rnini bir vaqtning o'zida qachonki nizoli huquq bir necha sub'ektlarga tegishli bo'lganida bir necha shaxslar (sharik da'vogarlar) egallashlari mumkin. Masalan, vasiyat bo'yicha meros mulki vorislarning faqat birigagina qoldirilganida qonunga (FKning 1142-moddasiga) binoan meros mulkidin majburiy xissa olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar (marxumning voyaga etmagan bolalari, boqimida bo'lgan boshqa shaxslar) o'zlariga tegishli meros xissasining ajratib berilishi to'g'risida sudda da'vo qo'zg'atib sharik da'vogarlar bo'la oladilar.

Da'vo yuzasidan javobgar taraf ham bir necha shaxslardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, bir necha shaxs birgalikda jinoyat qilib, aytaylik o'g'rilik qilib, fuqaroga yoki tashkilotga zarar etkazganlarida, jinoyatdan zarar ko'rgan shaxs sudda da'vo qo'zg'atib, ko'rgan zararining jinoyatda ishtirok qilgan barcha shaxslardan sharikchilik printsipli asosida undirilishi to'g'risida talab qo'ya oladi.

Bu printsipling mazmuni, mohiyati Shundan iboratki, agar zararni shariklardan biridan undirish mumkin bo'lmaganida, uning xissasini boshqa sharik javobgarlardan undirish mumkin bo'ladi.

Da'vogar tomonidan bo'ladigan sharik ishtirokchilar odatda, faol (aktiv) ishtirokchilar va javobgar tomonidan ishda qatnashadigan sharik ishtirokchilar esa passiv ishtirokchilar deyiladi. Agar jarayonda bir vaqtning o'zida bir necha da'vogarlar va bir necha javobgarlar ishtirok etsalar, aralash sharik ishtirokchilik to'g'risida so'z boradi.

Jarayonda sharik ishtirokchilik majburiy va nomajburiy (fakultativ) bo'lishi mumkin. sharik ishtirokchilik turlari nizoning predmeti nimadan iborat bo'lishiga va sharik ishtirokchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatning xarakteriga qarab belgilanadi.

Jarayonda majburiy sharik ishtirokchilik to'g'risida shuni aytish kerakki, jarayon sub'ektlaridan birining huquqi (yoki burchi) to'g'risidagi masalani, huquqiy munosabatning boshqa sub'ektlarining huquqlari yoki burchlarini shu bir vaqtning o'zida aniqlamasdan hal etish mumkin bo'lmaganida, sud nizoli huquqiy munosabatning hamma sharik da'vogarlar yoki sharik javobgarlarini ishga jalb etishga majbur bo'lganida-majburiy sharik protsessual ishtirokchilik to'g'risida so'z boradi. Masalan, turar joydan ko'chirish to'g'risidagi ishlarni

ko'rishda, sud sherik javobgarlar sifatida oilaning barcha voyaga etgan a'zolarini jarayonga jalb qilishga majbur. Shu tartibda majburiy sherik ishtirokchilikni belgilash uchun zarur asos-nizoli huquqiy munosabat sub'ektlarining umumiy burchi bo'ladi.

Fuqarolik jarayonida nomajburiy (fakultativ) sherik ishtirokchilik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablarning birga qo'shib hal qilinishi majburiy bo'lmasa ham, ammo maqsadga muvofiq deb topilgan holda vujudga keladi. Masalan, mulkning qo'riqlanishi tufayli zarar ko'rgan bir shaxsning da'vo ishi sudda qo'zg'atilganida javobgarga nisbatan boshqa shaxslarning ham da'volari borligi aniqlaganida, bunday shaxslar huquqlarining himoya qilinishini xohlasalar ko'riladigan ishda sherik da'vogarlar bo'lib hisoblanishlari mumkin. Sud hamma da'vo ishining bir vaqtning o'zida ko'rilishi maqsadga muvofiq deb topganida va bunday hollarda ishda boshqalarning ham ishtirok etishini lozim deb topsa, ish yuzasidan qo'shimcha da'vogarlar sifatida ishda ishtirok etish uchun boshqa zarar ko'rgan shaxslarni taklif qiladi. Ularning ishda ishtirok etishlari majburiy emas, ammo o'z mulkiy huquqlarining himoya qilinishini xohlasalargina bir vaqtda ko'riladigan ishda sherik da'vogarlar sifatida ishda ishtirok etishlari mumkin.

Sherik ishtirokchilarning har qaysilari fuqarolik jarayonida har qanday da'vogar va javobgar kabi protsessual huquqlardan va protsessual burchlardan teng foydalanadilar.

Fuqarolik ishida ishtirok etgan sherik da'vogarlar yoki sherik javobgarlarning birontasi tomonidan beriladigan shikoyat arizasiga ularning har qaysisi qo'shilish huquqiga ham ega bo'ladilar.

Fuqarolik ishining yuritilishida sherik ishtirokchilardan birining harakati boshqa sheriklarning foydasiga ham, zarariga ham qaratilmaydi, chunki sherik da'vogarlar va sherik javobgarlarning har qaysilari jarayonda boshqa tarafga nisbatan mustaqil da'vogar yoki mustaqil javobgar bo'lib ko'riladi.

Sherik ishtirokchilar ishning sudda yuritilishini o'z sheriklaridan biriga topshirishlari mumkin.

3-§. Ishga tegishsiz tarafni almashtirish

Sudya arz qilgan da'vo talablarini qabul qilishda, ishni sud majlisida ko'rish uchun tayinlashda ariza bilan sudga murojaat qilgan shaxsning (fuqaro yoki tashkilotning) huquqi yoki qonun bilan himoya qilinadigan manfaati buzilganligini va javobgar sifatida ko'rsatilgan aynan Shu shaxs tomonidan buzilganligini hanuz bilmaydi, faqat bunday holatning bo'lishi faraz qilinadi va kimning da'vogar va kimning javobgar bo'lishi taxminan belgilanadi.

Da'vogar shaxs huquqining buzilganligi va shu munosabat bilan uning o'zi da'vogar bo'lish va bu nizoli huquqni buzuvchi javobgar sifatida ko'rsatilgan shaxsning aynan o'zi javobgar bo'lishligi sud majlisida, ishni atroflicha, holisona (ob'ektiv) ravishda tekshirish natijasida aniqlanadi.

Ishning ko'rilishida aksariyat hollarda da'vogar ham, javobgar ham da'vo arizasida ko'rsatilgan shaxslar bo'ladi. Ammo ba'zi hollarda jarayonda yo da'vogar, yo javobgar taraf yoinki har ikki tomon ham xatolik bilan ishga jalb

etilishlari tufayli tegishsiz (daxldor bo'lmagan) taraf (taraflar) bo'lib chiqishi, ya'ni da'vogar da'vo ishi qo'zg'atishga haqli bo'lmagan taraf, javobgar esa mazkur da'vo yuzasidan javob berishga majbur bo'lmagan shaxs bo'lib topilishi mumkin. Shunday holatlarni nazarda tutib, qonun ishga daxldor-tegishsiz tarafni sudning tashabbusi bilan yoki prokurorning talabi bo'yicha yoki taraflardan birining iltimosiga ko'ra boshqa tegishli taraf bilan almashtirishga yo'l qo'yadi.

FPKning 42-moddasida ko'rsatilishicha, sud ishni tekshirish vaqtida arizani talab qilish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan qo'zg'atilganligini yoki javob berishi lozim bo'lmagan shaxsga nisbatan qo'zg'atilganligini aniqlasa, da'vogarning roziligi bilan ishni bekor qilmasdan, dastlabki da'vogarni yoki javobgarni tegishli da'vogar yoki javobgar bilan almashtirishga yo'l qo'yishi mumkin.

Tegishsiz, daxlsiz da'vogar deb nizoli huquqning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatning o'ziga tegishli bo'lishi to'g'risida da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'lmagan da'vogarga aytiladi. Chunonchi fuqaro G. vafot etgan o'g'lining xotinini kvartiradan ko'chirish to'g'risida sudda da'vo ishi qo'zg'atishda da'voga asos qilib, kelinining shu shaharda shaxsiy egaligida otasidan meros bo'lib qolgan uy-joyi borligini ko'rsatadi. Sud FKning 601-moddasi mazmuniga ko'ra, aniq maqsadga qaratilgan kommunal uy-joy fondidagi uy-joylar fuqarolarga uy-joyi ijaraga berish asosida berilganligini uy-joydan ko'chirishni har kim talab qila olmasdan, balki bu joyi ijaraga beruvchigina talab qilishi mumkinligini ko'rsatib, fuqaro G.ning ishi bo'yicha tegishsiz taraf ekanligini va uning tegishli da'vogar taraf kommunal uy-joy fondi rahbariyati bilan almashtirilishi lozimligi to'g'risida ajrim chiqaradi.

Agar da'vogar o'z o'rniga boshqa shaxs qo'yilishiga rozi bo'lmasa, u shaxs ishda nizo predmeti yuzasidan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida qatnasha oladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi dastlabki da'vogar G. da'voning boshqa asosini, Chunonchi: kelinini bilan doimo janjallaShuvlari sababli bir kvartirada yashashlari mumkin bo'lmasligini asos qilib ko'rsatib, FKning 615-moddasiga muvofiq kelinini ko'chirish to'g'risida mustaqil talab quyib ishda uchinchi shaxs sifatida qatnashishi mumkin.

Agar daxlsiz, tegishsiz da'vogar taraf jarayondan chiqishlikka rozilik bersayu, ammo tegishli da'vogar taraf sud ishiga kirishishga o'zining roziligini bermasa, bunday holda sud dastlabki holda da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligi tufayli ish yuritishni tugatadi (FPKning 100-moddasining 3-bandi).

Fuqarolik ishlarining ko'rilishida ba'zi hollarda daxlsiz, tegishsiz javobgarning ishtirok etishi uchrab turadi. Masalan, mulkini o'g'irlatgan fuqaro A. fuqaro B.ga nisbatan o'ziga etkazilgan zararining undiriishi to'g'risida da'vo qo'zg'atadi.

Qo'zg'atilgan jinoyat ishining sudda ko'rilishida fuqaro A. nizoli huquqning taxmin qilingan sub'ekti sifatida da'vogar o'rnini oladi. Fuqaro B. esa nizoli burchning sub'ekti, ya'ni javobgar sifatida ko'rsatilgan bo'ladi. Ammo ishning sudda ko'rilishi davomida A.ning mulki B. tomonidan o'g'irlanmasdan, balki

uning ukasi V. tomonidan o'g'irlanganligi aniqlandi. Shu munosabat bilan sud tegishsiz javobgarning daxldor-tegishli javobgar bilan almashtirilishi to'g'risida ajrim chiqaradi.

Agar da'vogar javobgar o'rniga boshqa shaxsni javobgar qilishga rozi bo'lmasa, sud u shaxsni ikkinchi javobgar sifatida ishga jalb qila oladi. qonun (FPKning 42-moddasining 3-qismi) tegishsiz tarafning (tegishsiz da'vogar va tegishsiz javobgarning) o'zgartirilishi sharti sifatida albatta da'vogarning roziligi bo'lishligi zarurligini ko'rsatadi.

Qonun javobgarning yoki da'vogarning tegishli taraf bilan O'zgartirilishiga javobgarning rozilik berishini talab qilmaydi.

Ishga ikkinchi, ya'ni daxldor-tegishli javobgar jalb etilgani holda chiqariladigan sudning hal qiluv qarori mazmuni har turli bo'lishi mumkin. Chunonchi: birinchidan, da'vogarning birinchi javobgarga nisbatan xatolik bilan qo'zg'atilgan talablarini ikkinchi javobgar hisobidan undirish to'g'risidagi qaror; ikkinchidan, sud birinchi javobgarga nisbatan, Shuningdek ikkinchi javobgarga nisbatan ham qo'zg'atilgan da'vo ishi bo'yicha javobgarlikdan ozod qilishi, masalan, ikkinchi javobgarga nisbatan da'vo muddatining o'tishi yoki majburiyatning ish sudda ko'rilishiga qadar ijro etilishi va boshqa asoslar bo'yicha ozod etish to'g'risidagi qaror; uchinchidan, sud ikkinchi javobgarni mas'uliyatdan ozod qila turib, birinchi javobgarga nisbatan qo'zg'atilgan da'voni kondirish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi ham mumkin.

Taraflardan biri almashtirilganidan keyin yoki ishga mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs yoxud ikkinchi javobgar jalb qilinganidan keyin taraflarga ish uchun loim hujjatlarni to'plash, jarayonga tayyorlanish imkoniyatini berish maqsadida ishning yangidan ko'rilishi boshqa vaqtga qoldiriladi.

4-§. Protsessual huquqni qabul qilish (huquqiy vorislik)

Nizoli yoki hal qiluv qarori bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan taraflarning biri uchinchi shaxs yoki ularning qonuniy vakili chikib ketgan hollarda (fuqaroning o'limi, yuridik shaxsning tugatilishi yoki uni qayta tashkil etilishi, talabning boshqa shaxsga o'tkazilishi, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi) sud bu tarafni uning huquqini qabul qiluvchi shaxs huquqiy voris bilan almashtirishga yo'l qo'yadi. Jarayonning hamma bosqichida protsessual huquqni qabul qilish mumkin (FPKning 43-moddasi).

Protsessual ma'nada huquqning qabul qilinishi (huquqiy vorislik)-sudda da'vo predmeti bo'lgan moddiy huquqning qabul qilinishi munosabati bilan ro'y beradi.

Ba'zi hollarda muayyan shaxsning huquq va burchlari boshqa shaxsga o'tishida huquq va burch sub'ektgari ham o'zgaradi. Chunonchi: meros qoldiruvchi vafot etganida uning mulkiy xarakterdagi huquq va burchlari qonun va vasiyat bo'yicha belgilangan vorislarga o'tadi. Xuddi shuningdek yuridik shaxs hisoblangan tashkilot qaytadan tuzilishida ham, uning huquq va burchlari boshqa tashkilotga o'tadi.

Fuqarolik huquqida ko'rsatiladigan talab qilish huquqining o'tkazilishi va qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi instituti (FKning 313-323-moddalari) moddiy-huquqiy ma'nodagi huquqning qabul qilinishiga va Shuning o'zi bilan protsessual huquqning ham qabul qilinishiga olib keladi. Masalan, birovga qarz bergan shaxs (kreditor) vafot etsa, qarzdordan tegishli haqni talab qilish huquqi (moddiy huquq) bilan birga javobgarga nisbatan da'vo ishini qo'zg'atish, sudda ish yuritilishida ishtirok etish huquqi (protsessual huquq) talab qilish huquqini oluvchilarga (vorislarga) o'tadi.

Protsessual huquqning qabul qilinishi hollarida ishda ishtirok etish uchun yangi da'vogar yoki javobgar jalb etilishiga qadar fuqarolik ishinining ko'rilishi vaqtincha to'xtatiladi.

FPKning 43-moddasining 2-qismida ko'rsatilganidek, huquqni qabul qiluvchi jarayonga kirishganiga qadar qilingan hamma harakatlar uning bilan almashtirilgan shaxsga qanchalik majburiy bo'lsa, unga ham Shunchalik majburiydir, ya'ni huquqni qabul qiluvchi (huquqiy voris) shaxs uchun ham tegishli bo'ladi.

Agar jarayonda taraflardan biri, masalan, tegishsiz, daxlsiz taraf tegishli taraf bilan almashtirishida fuqarolik ishinining ko'rilishi yangidan boshlansa, protsessual huquqning boshqa shaxs tomonidan qabul qilinishida unga ish materiallari bilan tanishish uchun vaqt va imkoniyat berilib, ishni ko'rish davom ettirilaveradi, yangitdan boshlanmaydi.

Huquqiy voris (huquq qabul qilish) protsessning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Huquqiy vorisning protsessga kirishganligini sud tegishli ajrim bilan rasmiylashtiradi.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik protsessida taraflar tushun chasi.
2. Taraflarning protsessual huquq va burchlari.
3. Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etish.
4. Birgalikda ishtirok etishning maqsadi, asoslari va uning turlari.
5. Birgalikda ishtirok etuvchilarning protsessual huquq va majburiyatlari.
6. Ishga daxldor bo'lmagan taraflar tushunchasiva ularni almashtirish tartibi.
7. Protsessual huquqiy vorislik tushun chasi, asoslari va protsessga kirishish tartibi.

4-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSIDA UCHINCHI SHAXSLARNING ISHTIROKI

Tayanch iboralar: fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasiva ularning turlari, mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar, ularning ishga kirishish asoslari va protsessual tartibi, mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari, mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning sherik da'vogarlardan farqi, mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, ularni fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari va protsessual tartibi, mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari, mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning birgalikda ishtirok etuvchi (sharik da'vogar, sharik javobgar) lardan farqi, ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarni jalb qilish.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining me'yor - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaniing fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Yuridik adabiyotlarda berilgan ta'rifga ko'ra da'vogar bilan javobgar o'rtasidagi nizoning predmeti o'ziga tegishli bo'lishi to'g'risida arz qiluvchi shaxs mustaqil da'vo qiluvchi uchinchi shaxs deb atalishi belgilangan¹.

Avvalgi mavzudan ma'lumki fuqarolik fuqarolik protsessining ishtirokchilari sifatida mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ham proess ishtirokchisi bo'lishi mumkin va uning huquqiy asoslari FPKning 44-,45-moddalarida mustahkamlangan. Ushbu moddalarda mustaqil talab bilan arz qiluvchi hamda mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning fuqarolik protsessiga qatnashishi tartibini, ularning protsessual huquqlarga ega bo'lishla-rini, arz qilingan talablarining miqdorini kamaytirishga yoki ko'paytirishga yoki ulardan voz kechish huquqlariga ega bo'lishliklari belgilangan.

Shuningdek FPK ning 45-moddasining uchinchi qismida da'vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida keliShuv bitimini tuzilishiga yo'l qo'yilishi belgilangan. Fuqarolik protsessual qonunchilikka ko'ra uchinchi shaxsning protsessual holati ariza beruvchi yoki da'vogarniki bilan teng bo'lib, protsessda ishtirok etuvchi taraflar qatorida teng va bir xilda protsessual huquq va majburiyatlardan foydalanadilar.

Mustaqil da'vo qiluvchi uchinchi shaxsning protsessual ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi to'g'risidagi iltimosi, agar ishning suda ko'rilishiga tayyorlanishi

¹ Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. TDYUI -2007, -64-b.

davrida qilingan bo'lsa, sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi, agar ish ko'rish boshlanganidan keyin murojaat qilingan bo'lsa, ishni birinchi instantsiya sudidan tashqari sud majlisida sudning to'la tarkibida hal qilinadi. Ushbu holatda sud iki holatni hisobga oladi. Birinchidan, uchinchi shaxs sifatida protsessda ishtirok etish uchun qonunda belgilangan asosning bo'lish bo'lmasligini, ikkinchidan, har ikki nizoning bir protsessda hal qilinishi maqsadga muvofiq bo'lish bo'lmaslikni e'tiborga olinadi.

Mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs odatda ariza beruvchi bilan ya'ni da'vogar yoki javobgar tomonidan bo'ladi va ular taraflardan birining yordamchisi sifatida ishga ishtirok etib, o'z huquqini himoya qilish maqsadid unga yordam beradi. Mustaqil talabalar buyulan arz qilmaatsyidigan uchinchi shaxslar arz qilingan talabning asosini va predmetini o'zgartirishga, talablarining miqdorini ko'paytirishga yoki kamaytirishdan tashqari, taraflarga oid hamma protsessual huquqlardan foydalanadilarva zimmasiga majburiyatlarni ham oladi.

Uchinchi shaxsning protsessual holati ariza beruvchi yoki da'vogarniki bilan barobardir, boshqacha qilib aytganda bunday uchinchi shaxs ariza beruvchi yoki da'vogar bo'lib hisoblanadi, dastlabki taraflar esa javobgar bo'lib ko'riladilar. Shu tufayli uchinchi shaxs ariza beruvchi yoki da'vogarning hamma protsessual huquqlaridan foydalanadi va uning hamma protsessual majburiyat-larini o'z zimmasiga oladi.

Dastlabki da'vogardan (ariza beruvchidan) uchinchi shaxsning farqi faqat shundaki, arizachi (da'vogar) da'vo talabini qilish yo'li bilan ishni boshlasa, uchinchi shaxs birov tomonidan boshlangan protsessga kirishadi.

Mustaqil da'vo qiluvchi uchinchi shaxs nizoli huquqning sub'ekti deb faraz qilinadi. Shu munosabat bilan uning protsessual holati dastlabki da'vogar (arizachi) holatiga o'xshaydi.

Protsessga uchinchi shaxs kirishganida javobgar shaxs dastlabki nizo yuzasidan har ikki nizo (ikki ish), birinchidan, dastlabki da'vogarning dastlabki javobgarga bo'lgan da'voli talab ishi va ikkinchidan, uchinchi shaxsning protsessdagi da'vogar va javobgarga nisbatan bo'lgan talab ishi mavjud bo'ladi. Ammo har qaysi nizoning da'vogarlarga teng darajada protsessual huquq va burchlarga ega bo'ladilar.

Mustaqil da'vo qiluvchi uchinchi shaxsning protsessda ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi to'g'risidagi iltimosi, agar ishning sudda ko'rilishiga tayyorlanishi davrida qilingan bo'lsa, sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi, agar ish ko'rish boshlanganidan keyin qilingan bo'lsa, ishni birinchi instantsiya sudidan tashqari sud majlisida sudning to'la tarkibida hal qiladi. Bu to'g'rida iltimosni ko'rishda sud iki holatni: birinchidan, uchinchi shaxs sifatida protsessda ishtirok etish uchun qonunda nazarda tutilgan asosning bo'lishi-bo'lmasligini va ikkinchidan, har ikki nizoning bir protsessda hal qilinishi maqsadga muvofiq bo'lish-bo'lmasligini e'tiborga oladi.

Uchinchi shaxs ishtirok etishi lozim bo'lgan fuqarolik ishining barcha manfaatdor shaxslar qatnashgani holda ko'rilishi birinchidan, sud va taraflarning vaqtlarini ancha tejashlikka imkon beradi; ikkinchidan, agar

dastlabki mulkiy nizo alohida ko'rilsa, bu to'g'rida chiqarilgan qarorga muvofiq nizoli mulkning keyinchalik sotilishi yoki ishlatib yuborilishining oldi olinadi; uchinchi, nizoli huquqni alohida-alohida ko'rilganida, uning yuzasidan qarama-qarshi hal qiluv qarorlarining chiqarilmasligi mumkin bo'ladi.

Protsessda uchinchi shaxsning ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi to'g'risida sudyaning yoki sudning chiqargan ajrimi qat'iy bo'lib, shikoyat qilinmaydi. Uchinchi shaxsning ishda ishtirok etishi to'g'risidagi iltimosini rad qilish to'g'risidagi ajrimi yuzasidan esa shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi mumkin. Ammo ishda ishtirok etishga yo'l qo'yilmagan uchinchi shaxs alohida mustaqil da'vo qo'zg'atish yo'li bilan nizoli predmetga nisbatan bo'lgan huquqini himoya qilishga haqli bo'ladi.

3-§. Mustaqil talablari bo'lmagan uchinchi shaxslar

Uchinchi shaxsning manfaati hamma vaqt nizoning predmetiga nisbatan mustaqil huquqqa ega bo'lishdan iborat bo'lavermaydi. Ba'zan dastlabki taraflarning ishi yuzasidan qaror chiqarilishi munosabati bilan protsessdagi taraflardan biriga nisbatan uchinchi shaxsning qandaydir huquq va majburiyat paydo bo'lishi, shu tufayli uchinchi shaxs nizoning predmetini talab qilmasa ham, qonuniy va asosli qaror chiqartirish va shuning bilan protsessdagi taraflardan biriga bo'lgan talabini ta'minlash protsessda ishtirok qiluvchi taraflardan birining o'zidan bir narsa talab qilishga yo'l qo'ymaslik uchun protsessga qatnashadi. qisqasi, dastlabki taraflar o'rtasidagi nizo yuzasidan chiqarilgan qaror uchinchi shaxsning (boshqa bir fuqaro yoki tashkilotning) huquq va burchlariga ta'sir etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 45-moddasida ko'rsatilgani-dek, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablari bo'lmagan uchinchi shaxslar, agar ish bo'yicha chiqariladigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlariga ta'sir etadigan bo'lsa, sudning hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar mustaqil da'volari bo'lmagan uchinchi shaxslar sifatida da'vogar yoki javobgar tomonidan ishda qatnasha oladilar.

Qonunning bu qoidasini misol bilan tushun tiraylik. Bir tashkilotning xodimi fuqaro A. aybi bilan fuqaro B.ga zarar etkazildi. qonun (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasi) bo'yicha fuqaro B.ning tashkilotga nisbatan da'vo qo'zg'adi. Fuqaro A. etkazgan zarar haqini tashkilotdan undirish to'g'risida sud qarori chiqarilgani holda bu javobgar tashkilot keyinchalik unga, fakaro A.ga nisbatan regress (qaytarma) da'voni qilish mumkinligini bilib, aybdor bo'lgan shaxs zarar etkazishidan o'z aybining yo'qligin isbotlash maqsadida ishda javobgar tomonidan turib qatnashish mumkin. Bu misolda uchinchi shaxsga nisbatan keyichalik regress da'vo qilishi mumkinligini va buning oldini olish maqsadida uning sud ishiga qatnashishini aytdik. Ammo uchinchi shaxslar taraflarning, prokurorning iltimosi bo'yicha yoki sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishlari mumkin (FPKning 45-moddasining 1-qismi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumining respublika-ning nikoh va oila to'g'risidagi qonunlarini sudlar tomonidan tadbiq etilishi amaliyoti

to'g'risidagi qarorida «agar ota-onalik huquqidan mahrum etish haqidagi da'vo ota-onalardan biriga nisbatan qo'zg'atilsa, sud boshqa ota (yoki ona)ning turmush sharoitini aniqlashga, uni uchinchi shaxs sifatida ishda qatnashish uchun jalb qilishga va bolani uni tarbiyasiga berish mumkin bo'lish-bo'lmasligi to'g'risidagi masalani muhokama qilishga majbur»¹ deb tushun tirish berdi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ma'lum bo'lishicha, uchinchi shaxslar faqat regress majburiyatlari ro'y berishi tufayligina emas, balki asoslar bo'yicha ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishlari mumkin. Demak, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talabi bo'lmagan uchinchi shaxs deb, muayyan ish chiqarilgan sud qarori, taraflardan biriga nisbatan bo'lgan uning huquq va majburiyatlariga ta'sir etishi mumkinligi tufayli boshqa birovlarining ishtirok etuvchi shaxsga aytiladi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talabi bo'lmagan uchinchi shaxsning ishga jalb etish manfaati nizolaShuvchi taraflarda ham bo'lishi mumkin. Chunonchi; fuqaro A.ga nisbatan uning sotib olgan narsasi (ashyosi) to'g'risida boshqa bir shaxs da'vo qo'zg'atsa, ashyoni sotgan fuqaro B. nizoli ishda oluvchi tomonida turib qatnashishi shart bo'ladi (FKning 394-moddasi).

Bunday hollarda bir tomonidan javobgarning protsessual holati engillashtirilsa, ikkinchi tomonidan uchinchi shaxs kelgusida o'ziga nisbatan qilinishi mumkin bo'lgan regress da'voning oldini olishga harakat qilgan bo'ladi.

Mustaqil talablari bo'lmagan uchinchi shaxs, odatda ariza beruvchi (da'vogar) va javobgar tomonidan bo'ladi va taraflardan birining yordamchisi sifatida ishda ishtirok etib, o'z huquqini himoya qilish maqsadida unga yordam beradi. Uchinchi shaxs bilan protsessdagi taraflardan birining manfaatlari faqat ish yuzasidan qaror chiqarilguncha bir-biriga to'g'ri kelib, keyinchalik bularning manfaatlari bir-biriga zid keladi. Uchinchi shaxs moddiy-huquqiy jihatdan ishda taraf bo'lib hisoblanmasa ham, ish yuzasidan chiqarilgan qaror unga bevosita joriy qilinmasa ham, ammo u ishning sudda ko'rilishida taraflarga beriladigan qator protsessual huquqlardan foydalanadi va zimmasiga majburiyatlar oladi.

Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar arz qilingan talabning asosini va predmetini o'zgartirish, talablarining miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirishdan tashqari, tarafarga oid hamma protsessual huquqlardan foydalanadilar va ularning protsessual majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar.

Agar mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'z xarakati yoki harakatsizligi oqibatida da'vogarning huquqlari buzilganligi to'g'risida arz qilingan talablarni tan olsa, sud majburiyatni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishga haqli. qonunda aynan Shunday hollarda da'vogar va mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida keliShuv bitimi tuzilishiga yo'l qo'yilishi ta'kidlangan.

Uchinchi shaxs ham taraflarga (ya'ni da'vogar va javobgarga), guvohlar va ekspertlarga savollar berib, zarur hujjatlarni sudga topshirib, ishning haqiqiy holatini aniqlashda protsessda faol qatnashadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, ish yuzasidan qaror chiqarilishi munosabati bilan protsessdagi taraflardan biriga nisbatan uchinchi shaxsda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlar, uchinchi shaxsning ishga aralashishi yoki jalb etilishi uchun asos bo'ladi. Agar paydo bo'lgan majburiyatlar ixtiyoriy ravishda bajarilmasa, uchinchi shaxsning yoki protsessdagi sobiq taraflardan birining yangitdan da'vo qo'zg'atishga (regress da'voga) sabab bo'lishi mumkin.

Bunday hollarda bir protsessda ikki da'voni: dastlabki arz qilingan talabni (da'vogarning) javobgarga va javobgarning uchinchi shaxsga (yoki aksincha uchinchi shaxsning javobgarga) bo'lgan da'vo talabini bir protsessda hal qilib bo'lmaydimi degan savol tug'iladi. Umumiy qoida bo'yicha bunday murakkab protsessning bir vaqtda etkazilishi mumkin emas. Bunga sabab shuki, birinchidan, chiqarilgan qaror yuzasidan uchinchi shaxsda yoki taraflardan birida paydo bo'ladigan huquqlarni majburiy ravishda amalga oshirish kerak bo'lish-bo'lmasligi dastlabki da'vo talabi bo'yicha qaror chiqarilganda xali ma'lum bo'lmaydi; ikkinchidan, sudning qarori to qonuniy kuchga kirguncha qat'iy bo'lmaydi, binobarin, huquq va majburiyatlarning paydo bo'lishi to'g'risida hanuz gapirib bo'lmaydi; uchinchidan taraflar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida qat'iy bir xulosaga kelmasdan turib, taraflardan birining uchinchi shaxs bilan bo'lgan munosabatini aniqlash ham qiyin bo'ladi.

Ammo qonun istesno sifatida bir protsessda ikki da'voni ham hal qilishga yo'l qo'yadi. Bunday istesnoga chunonchi noto'g'ri bo'shatilgan xodimni ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarni jalb qilishda yo'l qo'yiladi.

FPKning 259-moddasida ko'rsatilganidek, noto'g'ri bo'shatilgan yoki boshqa ishga o'tkazilgan xodimlarni ishga tiklash yoki oldingi vazifasiga qo'yish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud o'z tashabbusi bilan ishdan bo'shatishga yoki boshqa ishga o'tkazishga buyruq bergan mansabdor shaxsni javobgar tomonidagi uchinchi shaxs sifatida ishda ishtirok etish uchun jalb qilishga majbur. Sud ishdan bo'shatish yoki boshqa ishga o'tkazish ochiqdan-ochiq qonunga xilof bo'lganligini aniqlasa, u Shu protsessning o'zida aybdor mansabdor shaxsga xodimni ko'rgan zararlarini qoplash majburiyatini yuklashi lozim.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasiva ularning turlari.
2. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar.
3. Ularning ishga kirishish asoslari va protsessual tartibi.
4. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari.
5. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning sherik da'vogarlardan farqi.

6. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.
7. Ularni fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari va protsessual tartibi.
8. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari.
9. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning birgalikda ishtirok etuvchi (sherik da'vogar, sherik javobgar)lardan farqi.
10. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarni jalb qilish.

5-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSIDA PROKURORNING ISHTIROKI

Tayanch iboralar: fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etish maqsadi, asoslari va shakllari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuniga asosan fuqarolik protsessida prokurorning vazifalari, prokurorning fuqarolik protsessidagi huquq va majburiyatlari, prokurorning birinchi instantsiya, apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyalari sudida ishtiroki, sud qarorlarini ijro qilish boskichida prokuror ishtiroki.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik protsessual qonunchilik fuqarolik ishlarini ko'ruvchi sudlarda uning protsessual ishtirokchilari qatorida prokurorning ham protsessual huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Prokurorning protsessual huquqlari FPK ning 46-moddasida belgilangan. Unga ko'ra prokuror boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega. Shuningdek prokuror boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda boshidan ishtirok etish huquqiga ega.

Qonunda nazarda tutilgan yoki sud ishda prokurorning qatnashishini zarur deb topgan hollarda fuqarolik ishini ko'rishda, shuningdek prokurorning arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shart.

Umuman prokurorning sudlarda ishtirok etish huquqi va tartibi Prokuratura to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuning 33-37-moddalarida ham belgilab qo'yilgan.

Prokurorning protsessual huquq va majburiyatlari FPK ning 47-moddasida belgilangan unga ko'ra, prokuror FPKning 34-moddasida nazarda tutilgan protsessual huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi hamda bergan arizasidan butunlay yoki qisman voz kechishi, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun o'zi arz qilgan talablar bo'yicha sudga tushun tirishlar berishi, ish mazmuni yuzasidan, shuningdek ishni ko'rish vaqtida kelib chiqadigan ayrim maslalar bo'yicha o'z fikrini bayyon etishi, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori yuzasidan protest keltirish huquqiga ega.

Fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etishi qonunda belgilangan tartibda bo'lishi mumkin yoki muayan ishda ishtirok etishi sud tomonidan zarur deb hisoblangan holatlarda uning ishtiroki majburiy hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998 yil 11-

sentyabrdagi, 2002 yil 14 iyundagi 11-sonli qaroriga asosan kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan «Bolalar tabiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni ko'rib chiqishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi qarorning 13-bandida «ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha prokurorning ishtiroki qonunda nazarda tutilganligini e'tiborga olib sudlar bu ishlarni prokuror ishtirokisiz ko'rishga haqli emasligi» to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan.

Yuqorida keltirilgan qonun prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etishning ikki shaklini belgilaydi: birinchi shakli ariza berish yo'li bilan ish boshlashni va ikkinchi shaklida manfaatdor shaxs tomonidan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda jarayon boshlanishidan boshlab qatnashish huquqiga ega ekanligini belgilaydi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi bosh prokurorining 2004- yil 11-may 22-sonli «Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokiing samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish to'g'risida» gi buyrug'iga muvofiq Fuqarolik protsessual va Oila kodekslarida nazarda tutilgan qo'yidagi ishlar sudlarda ko'rilishida prokuror ishtiroki majburiydir deb belgilangan.

Prokurorning protsessda ishtirok etish asoslari FPK ning 19, 310, 330, 346, 349, 351, 364-moddalaridagi va prokuratura to'g'risidagi qonunlarda belgilangan huquqlardan foydalanadilar.

Prokuror faqat birgina narsaga haqqi bor va majbur, u ham bo'lsa hech qanday mahalliy xususiyatlarga va qanday bo'lmasin mahalliy ta'sirlarga qaramasdan butun Respublikada qonunni va boshqa huquqiy" me'yorlarni bir xilda tushun ishning tadbqiq etilishini kuzatib borishga qaratilgan. Prokurorning birdan-bir huquq va burchi masalani sud hukmiga topshirish lozimligi yuridik adabiyotlardan ma'lum. Ana shu qoidaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasiga ko'ra prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysinib amalga oshiradilar.

Prokuraturaning tashkiliy faoliyatidagi muhim xususiyati uning har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari, mahalliy organlar va mansabdor shaxslardan mustaqilligidir.

O'zbekiston Respublikasida Prokuraturaning faoliyati faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nazoratida bo'lib, davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, ularning vakillari, Shuningdek mansabdor shaxslar prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish, jinoyat ishlarini tergov qilish, shikoyat, ariza va xabarlarni tekshirib ko'rish hamda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish kabi faoliyatlariga aralaShuvlari man qilinadi.

Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalar va siyosiy mansablarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turish to'g'risida qoida belgilangan. Bu qoida mustaqillikka qadar totalitar tuzumi davridagi siyosiy talablar bo'lib, unga ko'ra prokuratura idoralari faqat partiyaning talablari va ko'rsatmalari asosida ish tutib, bu esa partiya bilan birga prokuratura xodimlarining o'zlarini ham qonunchilikni buzilishida ishtirokchi

bo'lib, inson huquqlarini toptalishiga olib kelgan holatlarni Respublika xalqi hanuz esdan chiqarmagan.

O'zbekiston Respublikasidagi hamma vazirliklar, davlat qumitalari va idoralari, davlat nazorati idoralari, hokimlar, shuningdek kimga bo'ysinishidan, kimning tasarrufida bo'lishidan va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, harbiy qismlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar tomonidan qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh Prokurori va unga bo'ysinuvchi quyi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Huquqiy demokratik davlat ko'rish uchun qonun ustuvorligini ta'minlashda qonunlarni aniq va ogishmay bajarish fuqarolar, tashki-lotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari-ning himoya qilinishidek muhim vazifalarni amalga oshirishda prokuratura idoralarining roli katta. Prokuratura idoralarining faoliyati «Prokuratura to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilganidek, qonunning ustunligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan inson va fuqaroning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek davlat mustaqil-ligini, ijtimoiy davlat tuzimini siyosiy va iktisodiy tizimlarni, milliy guruhlar va hududiy tuzilmalarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgandir.

Fuqarolik sud ishlari bilan bog'liq bo'lgan qonunlarning bajarilishi yuzasidan nazorat olib boruvchi prokuror fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan qonuniy va asosli qaror chiqarilishiga sudlarning mustaqilligi va faqatgina qonunga buysunish printsipiga qat'iy rioya etish faoliyatini nazorat qilish bilan odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashadi. qonunda (FPKning 46-moddasida) prokuror boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza bilan murojaat qilishga haqli. Shuningdek prokuror boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda protsessning boshidan boshlab ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Fuqarolik ishini ko'rishda prokurorning ishtiroki qonunda ko'rsatilgan, prokurorning o'zi yoki mazkur ishda ishtirok etishi sud tomonidan zarur deb topilgan hollardagina majburiydir.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etish maqsadi, asoslari va shakllari.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuniga asosan fuqarolik protsessida prokurorning vazifalari.
3. Prokurorning fuqarolik protsessidagi huquq va majburiyatlari..
4. Prokurorning birinchi instantiya, apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyalari sudida ishtiroki.
5. Sud qarorlarini ijro qilish boskichida prokuror ishtiroki.

6-MAVZU. BOSHQA SHAXSLARNING HUQUQLARINI SUDDA HIMOYA QILUVCHI DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI, TASHKILOTLAR VA AYRIM FUQAROLARNING PROTSESSDAGI ISHTIROKI

Tayanch iboralar: boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilishda davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari va maqsadlari, davlat boshqaruv organlarning fuqarolik protsessida ishtirok etish shakllari, fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi davlat boshqaruv organlarining turlari, ishda ishtirok etuvchi davlat boshqaruv organlarining prokurordan, uchinchi shaxslardan, ekspertlardan, vakillardan va protsessning boshqa ishtirokchilaridan protsessual huquqiy holatidagi farqi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik protsessida davlat boshqaruv idoralari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtirok etishining boshqa asoslari ham mavjud. Davlat boshqaruv idoralari, muassasalar, korxonalar hamda jamoat tashkilotlari yoki ayrim fuqarolar qonunda belgilangan hollarda boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun da'vo da'vo qo'zg'ata oladilar.

Demak, fuqarolik protsessual qonunchilik fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida prokurordan tashqari Yana boshqa idoralar va shaxslarning ham ishtirok etishini ta'minlaydi. Fuqarolik protsessida ishtirok etadigan davlat boshqaruv idoralari, tashkilotlar, muassasalar va jamoat birlashmalari fuqarolik protsessida faqat qonunda belgilangan asoslarda ishtirok etishi mumkin. Shu huquqlar bilan ushbu sub'ektlar prokurorning suda ishtirokidan farqlidir.

Fuqarolik protsesida muassasalarning ishtirok etishi bolalarning tarbiyasi bilan bog'liq ishlarni ko'rishda vasiylik va homiylik idoralari vakillarining ishtirok etishi zarurligi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 173-193-moddalarida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998 -yil 11-sentyabrdagi Plenum qarorida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan¹.

Fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtirok etishining protsessual huquqiy asosi va tatibi FPKning 48-49 –moddalarida belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 1998. 3-son.

Nikohdan ajratish ishlarida ham agar muomala layoqatiga ega bo'lmagan er yoki xotinning manfaatini himoya qilish talab qilinsa, zarur hollarda nikohdan ajratish to'g'risidagi da'vo vasiy yoki prokuror tomonidan qo'zg'atilishi va FPKning 48-moddasi 1- qismiga muvofiq vasiy organini ish bo'yicha xulosa berish uchun protsessga jalb qilish mumkinligini to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998 yil 11-sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi qarorida belgilangan.

Bundan tashqari sud amaliyotida birmuncha murakkab bo'lgan fuqarolik ishlari ham ko'riladi. Ushbu murakkab ishlarda manfaatdor shaxslar bilan boshqa shaxslar ham ishtirok etishi mumkin. Bunday murakkab ishlarga hovli-joylarni sotish bilan bog'liq ishlar, imoratlarni meros qilib olish, turar joylarni qaytadan qurish, taqsimlash, turar joylarni o'zgartirish, tura rjoy bo'lmagan binolarni turar joyga aylantirish, tura rjoy mayddonini bo'lish va almashtirish, yakka tartibda tura rjoy qurish va boshqa Shunga o'xshash ishlar murakkab hisoblanadi. Bunday ishlarni ko'rishda aksariyat hollarda fuqarolik protsessiga tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlarining turar joylar bilan Shug'ullanuvchi bo'lim va boshqarmalarning vakillari qatnashadilar.

Bunday turkumdagi ishlarni suda ko'rish uchun davlat hokimiyati idoralarining vakillari qatnashishi lozimligi haqida Oliy sud Plenumi zarur tushun tirishlar ishlab chiqqan. Masalan, O'z.R.Oliy sudi Plenumining «Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida» gi 1997 yil 2-maydagi qarori, «Yakka tartibda qurilgan uyga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida» gi 2004 yil 24-sentyabrdagi qarori va «Uy-joy nizolari bo'yicha sud amaliyoti haqida» gi 2001 yil 14-sentyabrdagi qarorlarida davlat uy-joy fondidagi turar joyni xususiylashtirishni amalga oshirishda fuqaro va mulkdorlarning huquqini muhofaza qilish bilan vujudga keluvchi nizolar sudlarga ta'lluqlidir².

O'zlashtirish savollari

1. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilishda davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari va maqsadlari.
2. Davlat boshqaruv organlarning fuqarolik protsessida ishtirok etish shakllari.
3. Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi davlat boshqaruv organlarining turlari.
4. Ishda ishtirok etuvchi davlat boshqaruv organlarining prokuror-dan, uchinchi shaxslardan, ekspertlardan, vakillardan va protsess-ning boshqa ishtirokchilaridan protsessual huquqiy holatidagi farqi.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari. 2004 yil 24-sentyabr.

7-MAVZU. SUDDAGI VAKILLIK

Tayanch iboralar: suddagi vakillik tushunchasiva uning ahamiyati, sudda vakillik qilish asoslari va turlari, qonuniy vakillik, yuridik shaxs vakilligi, ustav bo'yicha vakillik, shartnoma bo'yicha vakillik yoki ixtiyoriy vakillik, kasaba uyushmalarining va boshqa jamoat tashkilotlarining vakilligi, suddagi vakilning vakolatlari (hajmi va uni rasmiylashtirish tartibi), sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida Prezident farmoyishining me'yor - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik ishlarini ko'ruvchi sudlarda fuqarolar o'z huquq va manfaatini himoya qilish uchun o'zlari ishtirok etishlari mumkin. Ayrim holarda sudaga murojaat qilishi uchun yoki sudda fuqarolik ishini qo'zg'atishga sabab bo'lgan taraflar o'z huquq manfaatini vaillari orqali protsessda qatnashishlari mumkin.

Sudda vakillik qilishning protsessual asoslari FPK ning 50-moddasida belgilangan. Unga ko'ra fuqarolar o'z ishlarini suda shaxsan va o'z vakillari orqali yuritishlari mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan qatnaShuvi uni Shu ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum emtmaydi.

Tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki o'z vakillari orqali yuritadilar.

Fuqarolik protsessual qonunchilik suddagi vakillikni qonuniy hamda shartnomaviy vakillik turlari mavjudligini belgilaydi.

Qonuniy vakillik muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini suda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka oluvchilar, vasiylar vav homiylar) himoya qiladilar.

Belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaro ishtirok etishi lozim bo'lgan ish bo'yicha uning vakili sifatida mazkur fuqaroning mol-mulki qo'riqlanishi va boshqarish hamda shaxsiy huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun tayinlangan shaxs qatnashadi.

Vafot etgan yoki belgilangan tartibda o'lgan deb e'lon qilingan shaxsning merosxo'ri qatnashishi lozim bo'lgan ish bo'yicha, agar merosni hali hech Kim qabul qilib olmagan bo'lsa, merosxo'rning vakili sifatida vasiy yoxud meros mol-mulkni saqlash va boshqarish uchun tayinlangan saqllovchi shaxs qatnashadi.

Qonuniy vakil sudda ish olib borishni vpakil sifatida o'zi tanlagan boshqa shaxsga topshirish huquiga ega. (FPK 51m).

Shartnoma bo'yicha vakillik ya'ni ixtiyoriy vakillika ishonchnoma bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha suda ish yuritishni vakilga topshiradi. Quyida-gilar shartnoma

bo'yicha vakil bo'la oladilar: advokatlar: taraflar, uchinchi shaxslar tomonidan tanlangan shaxslar: birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa ishtirok etuvchilarning topshirig'i bo'yicha. (FPK 52m).

Bundan tashqari fuqarolik protsessual qonunchilik vakillarning vakolatlarini rasmiylashtirish va vakilning vakolatlarini, suda vakillik qilishi mumkin bo'lmagan shaxslarning protsessual asoslarini va tartiblarini belgilaydi.

Sh.Sh.Shoraxmetovning fikricha suda vakillik qilish deb manfaatdor shaxsning topshirig'i bo'yicha yoki qonunda nazarda tutilgan barcha asoslarga ko'ra protsessual harakatlarni amalga oshirishga aytiladi deb ta'kidlaydi¹.

Vakolat beruvchi bilan vakillik qiluvchi o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik, oila, mehnat va ma'muriy-huquqiy me'yorlar ilan tartibga solinadi.

Vakillikni amalga oshirishning shartnomaviy shaklida asosan vakil sifatida advokatlar qatnashadilar.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining Advokatura to'g'risidagi 1996-yil 27-dekabrida qabul qilingan qonuniga asosan advokatlar fuqarolik, jinoiy, xo'jalik, ma'muriy, mehnat nizolari bilan bog'liq ishlar-da ishtirok etib moddiy va protsessual huquqlardan foydalanadilar.

«Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi 1998 yil 25-dekabrdagi qonuniga asosan «Advokat taraf sifatida, sud ishlarini yuritishning hamma bosqichlari-da protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega» ekanligi yuqoridagi huquqiy me'yorni bir muncha aniqlashtiradi.

O'zlashtirish savollari

1. Suddagi vakillik tushunchasiva uning ahamiyati.
2. Suda vakillik qilish asoslari va turlari: qonuniy vakillik, yuridik shaxs vakilligi, ustav bo'yicha vakillik, shartnoma bo'yicha vakillik yoki ixtiyoriy vakillik, kasaba uyushmalarining va boshqa jamoat tashkilotlarining vakilligi.
3. Suddagi vakilning vakolatlari (hajmi va uni rasmiylashtirish tartibi).
4. Suda vakil bo'la olmaydigan shaxslar.

¹ Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. TDYUI -2007, -90-b.

8-MAVZU. SUD XARAJATLARI. SUD JARIMALARI

Tayanch iboralar: fuqarolik protsessida sud xarajatlari tushunchasiva turlari. Davlat boji va uning turlari, O'zbekiston Respublikasining «Davlat boji to'g'risida»gi qonuni, «Davlat boji stavkalari to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 533-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud harajatlarini va jinoyat ishlari yuzasidan sud chiqimlarini undirish amaliyoti to'g'risida»gi 1996 yil 20 dekabrda 42-sonli qarorining mazmuni va ahamiyati, da'vo bahosi va uni belgilash tartibi, Ishni ko'rish bilan bog'lik bo'lgan chikimlar, sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish va uning asoslari, taraflar o'rtasida sud xarajatlarini taqsimlash, sud jarimalari, sud jarimalarini solish asoslari va tartibi, jarimadan ozod qilish va uning miqdorini kamaytirish.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda davlat boji, sud xajatlari va sud chiqimlari qonun hujjatlarda belgilangan tartibda undiriladi. Sud xarajatlarining ma'lum bir qismini davlat boji tashkil etadi.

Sud xarajatlarining protsessual huquqiy asoslari FPK ning 10 bobida ko'rsatilgan. Ushbu assolar kodeksning 103-121-moddalarida belgilangan. Sud jarimalari esa ushbu kodeksning 122-126 moddalarida belgilangan.

Davlat bojining miqdori qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lib¹, qoida bo'yicha da'vo qiymati, ya'ni da'vogarning mulkiy manfaatining pul bilan ifodalangan summasi miqdoriga bog'liq bo'ladi. Sud orqali talab qilinadigan pul yoki mulk qiymati qancha ko'p bo'lsa, olinadigan davlat boji ham shunga yarasha oshiqroq belgilanadi va bu asos FPK ningn 105-moddasida mustahkamlangan.

Fuqarolik ishlarining suda ko'rilishi bilan bog'liq xarajatlarning ikkinchi qismini sud chiqimlari tashkil qiladi. FPK ning 109 –moddasida belgilanganidek, ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar: guvohlarga va ekspertlarga to'lanadigan summalardan, ish uchun ahamiyatli bo'lgan joyning sud tomonidan borib ko'rilishi bilan bog'liq xarajatlardan, FPKning 140-moddasida ko'rsatilgan hollarda javobgarni, jumladan, aliment to'lashdan yoki birovga etkazilgan zarar haqqini to'lashdan qochgan shaxsni qidirish uchun qilingan xarajatlardan va sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan iborat bo'ladi.

¹ «Davlat boji to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1992 yil dekabr qonuni. Yangi qonunlar to'plami, 7 –son, 1993.

Davlat boji sudlarga beriladigan da'vo arizalari, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-xarakatlari, qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar, alohida tartibda ko'riladigan ishlar bo'yicha arizalar, sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan appelyatsiya, kassatsiya tartibida shikoyatlar va nazorat tartibida protestlar keltirish to'g'risida arizalar berganlik uchun, Shuningdek, sudlarda hujjatlardan nusxalar berilishi uchun undiriladigan pul summasi hisoblanadi.

Davlat bojining miqdori va uning to'lanishi tartibi «Davlat boji to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1992 yil dekabr qonuni vash u asosda Vazirlar Maxkamasining 1994 yil 3-noyabrdagi 533-sonli «Davlat boji stavkalari to'g'risida»gi va unga kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 11 oktyabrdagi 358-sonli qarori, Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan 1993 yil 8-iyunda tasdiqlangan «Davlat boji to'g'risida» gi yo'riqnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini va jinoyat ishlari yuzasidan sud chiqimlarini undirish amaliyoti to'g'risida» gi 1996 yil 20-dekabr qarori hamda FPK ning 103-121 moddalari bilan belgilangan². Shu asosda davlat boji barcha sub'ektlardan bir xil tartibda olinadi.

Fuqarolik protsessida ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar ham mavjud bular qonunda ko'rsatilganidek guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar, joyga borib ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, alimentlar va zarur haqni undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha javobgarni qidirish uchun qilingan hamda sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog'liq xarajatlardan iborat bo'ladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish bilan bog'liq ishlarning ayrimlarida sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilinishi mumkin bo'lgan holatlar ham mavjud. Bular FPK ning 110-111 –moddalarida va «Davlat boji to'g'risidagi» yuqorida qayd qilingan qonunning 4-moddasida ayrim davlat byudjetida turgan muassasalar, tashkilotlar ham davlat bojini to'lashdan ozod qilinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik protsessida sud xarajatlari tushunchasiva turlari.
2. Davlat boji va uning turlari.
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat boji to'g'risida»gi qonuni, «Davlat boji stavkalari to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 533-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini va jinoyat ishlari yuzasidan sud chiqimlarini undirish amaliyoti to'g'risida»gi 1996 yil 20 dekabrdagi 42-sonli qarorining mazmuni va ahamiyati.
4. Da'vo bahosi va uni belgilash tartibi.
5. Ishni ko'rish bilan bog'lik bo'lgan chikimlar. Sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish va uning asoslari.
6. Taraflar o'rtasida sud xarajatlarini taqsimlash.
7. Sud jarimalari. Sud jarimalarini solish asoslari va tartibi.
8. Jarimadan ozod qilish va uning miqdorini kamaytirish.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 1995 yil 1-2 -sonlar, Qonun nomi bilan. Oliy sud Axborotnomasi 1997 yil 3-son.

9-MAVZU. PROTSESSUAL MUDDATLAR

Tayanch iboralar: protsessual muddatlar tushunchasiva ular-ning moxiiyati, protsessual muddatlarning turlari, O'zbekiston Respub-likasi Oliy sudi Plenumining "Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash va uni ko'rish muddatlari to'g'risida"gi 1999 yil 24 sentyabrdagi qarori va uning ahamiyati, protsessual muddatlarni hisoblash, protsessual muddatlarni o'tkazib yuborish oqibatlarini, o'tkazib yuborilgan protsessual muddatlarni uzaytirish va uni tiklash tartibi, fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash va ko'rish bilan bog'lik bo'lgan muddatlar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik ishlarini suda ko'rish qonunda hamda sud tomonidan belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishini belgilaydi. Protsessual muddatlarning huquqiy asoslari FPKning 12-bobining 126-131-moddalarida qayd qilingan asoslar bo'yicha tartibga solinadi. Fuqarolik ishlarini ko'rish bilan bog'liq muddatlarning umumiy tartibi bir oy qilib belgilangan. Lekin fuqarolik ishlari maxsus tartibda belgilangan muddatlarda ham ishlarni ko'rib chiqadi. Jumladan FPK ning 131-moddasida belgilanishicha, fuqarolik ishlari bo'yicha arizalar tushgan tundan boshlab qo'yidagi muddatlarda ko'rilishi kerak:

- mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha 10 kundan kechiktirmasdan:

- mayib bo'lish yoki sog'liqqa boshqacha shaklda shikast etishi, shuningdek, boquvchining o'limi natijasida kelgan zararlarni qoplash to'g'risidagi ishlar va aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha, taraflar shu joyda turgan hollarda, 10-kundan kechiktirmasdan boshqa hollarda esa 20-kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishi lozim va bu qoidalar FPK ning 131-moddasida belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga notariuslarning harakatlari ustidan shikoyatlar 20-kunlik muddatdan kechiktirmasdan ko'rilishi lozimligi ham FPK ning 273-moddasida belgilangan.

Protsessual muddatlar yillar, oylar va kalendar bilan hisoblanadi. Muddatning o'tishi kalendar sananing yoki muddatning boshlanishi deb belgilangan voqea yuz bergan kunning ertasidan boshlanadi.

Yillar bilan hisorblanadigan muddatlar uning oxirgi yilining tegishli kunida tamom bo'ladi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddatlar tegishli oyda va muddat oxirgi oyning tegishli kunida tamom bo'ladi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayorlash va ularni ko'rish muddati muhim protsessual qoidalaridan biri hisoblanadi. Bular fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab 10-kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.

Bundan tashqari sud tomonidan tayinlangan muddatlarni sud o'zining tashabbusi bilan ularni kechiktirishi ham mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunda belgilangan muddatni sud uzrli deb topgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan bo'lsalar, mazkur muddat tiklanadi. O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklashni rad etish to'g'risida sud chiqargan ajrim ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Sudning xususiy ajrimi, bayonnoma yuzasidan yozma fikr bildirish, jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirish, qo'shimcha hal qiluv qarori, hujjatni saqlovchining majburiyati, kassatziya shikoyati berish protest keltirish muddati, Yangi ochilgan holatlar bo'yicha ariza berish, ijro varaqasini ijroga topshirish muddatining uzilishi, ijro varaqasini ijroga topshirishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash, hal qiluv qarorini qaytarma ijrosi bilan bog'liq muddatlar FPK ning 19, 23, 124, 214, 304, 312, 320, 364, 377, 378, 379- va 392-moddalarida ko'rsatilgan muddatlar bevosita protsessual muddatlar hisoblanadi.

O'zlashtirish savollari

1. Protsessual muddatlar tushunchasiva ularning mohiyati.
2. Protsessual muddatlarning turlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash va uni ko'rish muddatlari to'g'risida»gi 1999 yil 24 sentyabrdagi qarori va uning ahamiyati.
3. Protsessual muddatlarni hisoblash. Protsessual muddatlarni o'tkazib yuborish oqibatlari.
4. O'tkazib yuborilgan protsessual muddatlarni uzaytirish va uni tiklash tartibi.
5. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash va ko'rish bilan bog'liq bo'lgan muddatlar.

10-MAVZU. FUQAROLIK ISHLARINING SUD VA BOSHQA ORGANLARGA TAALLUQLILIGI

Tayanch iboralar: taalluqlilik tushunchasiva turlari, fuqarolik ishlarining sudlarga taalluqliligi, fuqarolik ishlarini sudga taalluqliligi haqidagi qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlar, fuqarolik, mehnat, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarining sudga taalluqliligi, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va ariza bo'yicha ish yuritish hamda alohida tartibda ko'riladigan ishlarining sudga taalluqliligi, bir-biri bilan bog'lik bir kancha talablarning sudga taalluqliligi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabani fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik ishlarining sudlovga taalluqliligi fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilangan asoslar bo'yicha hamda O'zbekiston Respublikasining Sudlar to'g'risidagi qonunida belgilangan tartib va qoidalar asosida sudlovga taalluqliligi belgilanadi.

Sudga taalluqli ishlar FPK ning 31-32-moddalarida belgilangan asoslarga ko'ra aniqlanadi. Ushbu moddalarga asosan sudlarga qo'yidagi ishlar taalluqli bo'lishi mumkin.

1.Taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolarga bo'lgan doir ishlar, qonunda bunday nizolarni hal qilish xo'jalik sudi yoki boshqa organlarga topshirilgan ishlar bundan mustasno.

2.FPK ning 279-moddasida sanab o'tilgan alohida tartibda ko'riladigan ishlar.

3.Qonun bilan sudlarning vakolatiga berilgan boshqa ishlar bunday ishlarga,

A.Fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga oid ishlar davlat organlari va boshqa organlar, Shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-xarakatlari qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar va arizalar to'g'risidagi ishlar 26-29 boblarda belgilangan.

B.Bir tomondan davlat tashkilotlari, ikkinchi tomondan temir yo'l va havo transportida tegishli xalqaro shartnomalar asosida tuziladigan to'g'ri xalqaro temir yo'l va havo yo'llarida yuk tashish shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarga oid ishlar.

V.Chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki chet el fuqarolari va tashkildotlari ishtirok etayotgan ishlar va boshqalar.

Bundan tashqari FPK da ishlarning sudlovga talluqligi ko'rsatilgan. Jumladan, FPK ning 32- moddasida bir biri bilan bog'liq bo'lib, ba'zilari sudga, ba'zilari esa xo'jalik sudiga talluqli bo'lgan bir qancha talablar birlashtirilganida, bu talabldarning hammasi suda ko'rilishi kerak.

Fuqarolik sudlariga talluqlilik fuqarolarning sha'n va qadr qimmatiga ta'sir ko'rsatuvchi davlat organlari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining noqonuniy qarorlaridan kelib chiqadigan qonunga xilof harakatlar to'g'ridan to'g'ri sud tartibida hal qilinishi kerak.

Fuqarolik ishlariga talluqlilik fuqarolarning mehnat qilish huquqlaridan ham kelib chiqishi mumkin. Masalan xodimning ishdan noqonuniy bo'shatishi yoki uni boshqa ishga ishchidan so'ramasdan o'tkazish harakatlar noqonuniy hisoblanib mehnat kodeksiga qarshi harakatlar hisoblanadi va ushbu turdagi ishlar bevosita fuqarolik ishlarini ko'ruvchi sudlarga talluqli bo'ladi.

Bundan tashqari fuqarolarning uy-joy huquqlarini buzuvchi xatti xarakatlar natijasida kelib chiqadigan nizolar ham bevosita fuqarolik sudlari tomonidan hal qilinishi lozimdir.

Yuqoridla qayd qilingan ishlar sodir etilishiga qarab sudgacha ham hal qilinishi mumkin agarda huquqbuzar o'zining aybini tan olsa, zarar ko'ruvchiga nisbatan zararni ixtiyoriy ravishda o'zaro keliShuv asosida undirib bersa yoki ushbu nizolar kasaba uyushma tomonidan hal qilinmasa u holda ishlar mehnat nizolari komissiyalarida ham hal qilinishi mumkin.

Mehnatga oid nizolar o'z mazmuniga ko'ra ikki guruxga bo'linadi, birinchisi mehnat shartlarini belgilash yoki o'zgartirish to'g'rimida kelib chiqadigan nizolarga va ikkinchidan, qonun shartnoma yoki ichki mehnat qoidalari bilan belgilangan mehnat shartlarini qo'llanish bilan bog'liq nizolarga bo'linadi.

Qonunda belgilanishicha mehnat nizolari komissiyasi mehnat bilan bog'liq nizolarni ishchining arizasi berilgan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishi kerak. Nizo ariza bergan xodimning ishtirokida ko'rib chiqiladi. Xodimning ishtirokisiz nizoni hal qilish uning yozma arizasi bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.

Agarda mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiya tomonidan ma'lum ish o'z vaqtida ko'rib chiqilmasa u holda manfaatdor shaxs ariza bilan Ushbu nizoni hal qilish uchun tuman shahar sudiga FPK ga muvofiq murojaat etishi mumkin.

Fuqarolik sudloviga talluqlilik huquqlari amaldagi qonundlar bo'yicha sudlar tomonidan ko'riladigan va nikoh va ihoilaga oid nizolar bo'lib, asosan qo'yidagilar Kirishi mumkin, nikohning tugatilishi er yoki xotinning vafoti, nikoh er yoki xotinning birini yoki ikkalasini ajratish yo'li bilan vash u bilan bog'liq nizolarni, masalan bolalar to'g'risidagi, mulk to'g'risidagi va boshqa ishlar bo'lishi mumkin.

Bu erda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki agarda er va xotinning nikohini bekor qilishda ularning voyaga etmagan farzandlari bo'lmasa u holda makur turdagi ishlar FXDYO organlari tomonidan ular o'rtasidagi nikoh shartnomasi bekor qilinishi mumkin.

Bundan tashqari fuqarolik sudlov ishlariga talluqlilik masalalari uy-joy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolardan ham bo'lishi mumkin. Masalan uy-joy to'g'risidagi kodeksning 104-113-moddalarida ko'rsatilgan holatlarda, ya'ni tura rjoy joylar o'zboshimchalik bilan egallangan hollarda uyning xavfli bo'lgan hollar bunday uylarda yashovchilarni, xizmat bilan bog'liq bo'lgan turar joylardan, yotoqxonalardan va mehmonxonalardan ko'chirish to'g'risidagi ishlar sudlarga talluqli bo'lmasdan, ma'muriy organlarga, ya'ni prokuratura organlariga talluqli bo'ladi. Uy joy kodeksining 119-123-moddalarida belgilangan tartibda.

O'zlashtirish savollari

1. Taalluqlilik tushunchasiva turlari. Fuqarolik ishlarining sudlarga taalluqliligi.
2. Fuqarolik ishlarini sudga taalluqliligi haqidagi qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlar.
3. Fuqarolik, mehnat, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabat-lardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning sudga taalluqliligi.
4. Davlat organlari va boshqa organlar, Shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va ariza bo'yicha ish yuritish hamda alohida tartibda ko'riladigan ishlarning sudga taalluqliligi.
5. Bir-biri bilan bog'lik bir kancha talablarning sudga taalluqliligi.

11-MAVZU. FUQAROLIK ISHLARINING SUDLOVGA TAALLUQLILIGI

Tayanch iboralar: sudlovga taalluqlilik (sudlovlilik) tushun chasi, sudlovlilikning taalluqlilikdan farqi, sudlovlilikning turlari, turdosh sudlovlilik, hududiy sudlovlilik turlari: da'vogarning tanlashi bo'yicha sudlovlilik, sudlovga taalluqlilikning alohida hollari (mustasno sudlov-lik), kelishilgan sudlovlilik va bir-biri bilan bog'liq bo'lgan talablarning sudlovliligi, ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi, Sudlovga taalluqlilik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatlar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining me'yor - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

O'tgan mavzularda biz fuqarolarning huquq va manfaatiga zid harakatlarning bevosita sud yoki boshqa davlat organlariga taalluqliligini o'rgangan dik, endi esa fuqarolik ishlarining qaysi sud organlariga tegishli ekanligini o'rganishdan iborat bo'ladi. Sudlovlilik sudlarning vakolatiga berilgan ishlarni qaysi sud ko'rib hal etishligi tushunchasibilan taalluqlilik tushunchasichambarchas bog'liqdir. Ushbu tushunchalar o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki taalluqlilik deganda fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish yuzasidan sudlar bilan boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalari o'rtasidagi huquq doirasi chegaralanishi, ajratilishi nazarda tutilsa, sudlovda esa, bir tomondan, hal qilinadigan maslalarining sudga taalluqli bo'lishini va ikkinchi tomondan, yagona sud tizimi ichida sudlar o'rtasidagi huquq darajasining belgilanishi tushun iladi.

Sudlov deb sudlarga taalluqli bo'lgan hamma ishlarining sud tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishiga aytiladi. Ishning sudlovliligini belgilashda muayan ishning aynan qaysi suda ko'rilishiga va uning hal etilishiga vakolatli bo'lishligini aniqlash tushun iladi. Ishning qaysi sudga tegishli bo'lishini ya'ni sudlovliligini belgilashda ko'riladigan ishning turiga ham bog'liq bo'lib, bunda nizoning predmeti nimadan iborat bo'lishi va taraflarning kimlar bo'lishiga ham qaraladi. Sudlovning bunday chegaralanishiga turdosh sudlov deyish ham mumkin.

Qonun hujjatlarda belgilanishicha fuqarolik ishlarining sudlovliligi sud instantsiyasida ko'rilishi bilan yuqorida qayd qilganimizdek o'ziga xos tartibda xarakterlanadi. Shu bilan birga har qanday nizolashayotgan yoki yuridik faktlarni aniqlashga doir ishlar yuzasidan kelib chiqadigan fuqarolik ishlari avvalom bor da'vogar yoki talabgorning yashash joyidagi sud organiga taalluqli bo'ladi. Sud tizimining yuqori organlarida ishlar o'ta murakkab yoki

tarafning shikoyati bo'yicha yoki sud idoralarining tashabbusi bilan quyi instantsiya sudlari tomonidan chiqarilgan ishlarni ko'rish mumkin.

Yuqori sudlar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi, alohida holatlarni hisobga olib har qanday fuqarolik ishini o'z hududidagi mahalliy quyi sudlardan olishga va uni birinchi instantsiya sudi sifatida o'zining ish yuritishiga qabul qilishga yoki ishni bir suddan ikkinchi sudga o'tkazishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga qanday ishlarning tegishli bo'lishligi O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi «Sudlar to'g'risida» gi qonuniga muvofiq birinchi instantsiya sudi sifatida alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni ko'radi. Ayrim hollarda qaysi turkumdagi ish qaysi suda ko'rilishi qonunda ko'rsatilgan bo'ladi.

Maslan, O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15-fevraldagi "Jamoat birlashmalari to'g'risida" gi qonunida jamoat birlashmalari-ning Nizomlarini ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda shikoyat qilish huquqi sudga talluqli ekanligi to'g'ridan to'g'ri ko'rastilgan.

Hududiy sudlovlik ham mavjud bunda tegishli fuqarolik ishlarining ko'rilishi va hal qilinishi javobgarining turar joyi bo'yicha belgilanadi. Ushbu qoida asosan fuqarolarga talluqli bo'ladi. Shu bilan birga agar javobgar yuridik shaxsdan iborat bo'lsa, u holda ishlar Ushbu yuridik shaxs joylashgan joyda yoki Ushbu yuridik shaxsning organi joylashgan joydagi sudga ko'rib chiqiladi.

FPKning 145-moddasida ko'rsatilganidek, da'volar javobgarining doimiy yashash joyi yoki doimiy ishlab turgan joyidagi tuman yoki shahar sudida qo'zg'atiladi. Yuridik shaxsga qilinadigan da'vo yuridik shaxs organi yoki uning filiali joylashgan joyda qo'zg'atiladi.

Fuqarolik ishlarining qaysi sudga ko'rilishida da'vogarining tanlashi bo'yicha belgilanishiga qarab uni alternativ sudlov ham deyiladi. FPKning 24-moddasida da'vogarining tanlashi bo'yicha alternativ sudlov qo'yidagi hollarda amalga oshiriladi:

- yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan da'vogar uning mulki turgan joyda yoki uning oxirgi yashagan joyida taqdim etilishi mumkin.

- ayrim fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida yashash joyiga ega bo'lmagan javobgarga nisbatan da'volar O'zbekiston Respublikasida uning mulki turgan joyda yoki ma'lum bo'lgan oxirgi yashash joyida taqdim etilishi mumkin.

- da'vogar aliment undirish to'g'risidagi, otalikni belgilash haqidagi va mayib bo'lishi yoki sog'ligiga boshqacha tarzda shikast etkazilishi yoxud boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar o'zi yashab turgan joyda ham taqdim etilishi mumkin va boshqa holatlar bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari fuqarolik ishlarining sudlovlikligi mustasnor sudlovlikligi, kelishilgan sudlovlikligi hamda bir biri bilan bog'liq ishlarning sudlovlikligi bo'lishi mumkin.

Mustasno sudlovlilikda ba'zi fuqarolik ishlarining turlarga nisbatan ularning xususiyatlariga qarab qonun bunday ishlarining faqat muayan sudga tegishli bo'lishini belgilashiga qarab mustasno sudlov deyiladi. Ushbu turdagi sudlovlilikga doir ishlar jumlasini FPKning 242-moddasida ko'rsatib o'tilgan.

Kelishilgan sudlovlilikda esa taraflarning o'zaro keliShuvlari bo'yicha ixtiyoriy ravishda belgilangan sudlovni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan kelishilgan sudlov deyiladi. Bunga misol qilib hakamlik sudlariga taraflarning murojaat etishida ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlarni keltirish mumkin.

Bir biri bilan bog'liq ishlarining sudlovliligi bunday sudlov to'g'risida shuni aytish kerakki ma'lum hollarda taraflarning huquqiy o'zaro munosabatlarini har taraflama aniqlash, ishning ko'rilishini tezlashtirish, sud xarajatlarining kamaytirish maqsadida bir biri bilan bog'liq ishlar birga qo'shi ko'riladi. Ushbu holatlarning huquqiy asoslari FPK ning 244-moddasida belgilangan.

O'zlashtirish savollari

1. Sudlovga taalluqlilik (sudlovlilik) tushun chasi.
2. Sudlovlilikni taalluqlilikdan farqi. Sudlovlilikning turlari. Turdosh sudlovlilik.
3. Hududiy sudlovlilik turlari: da'vogarning tanlashi bo'yicha sudlovlilik, sudlovga taalluqlilikning alohida hollari (mustasno sudlovlik), kelishilgan sudlovlilik va bir-biri bilan bog'liq bo'lgan talablarning sudlovliligi.
4. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi. Sudlovga taalluqlilik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatlar.

12-MAVZU. ISBOTLASH VA DALILLAR

Tayanch iboralar: suddagi dalillar va isbotlash vositalarining tushunchasiva maqsadi, dalillarning daxldorligi va isbotlash vositalariga yo'l ko'yilishi, isbotlashdan ozod qilish asoslari, dalil prezumtsiyasi, tushunchasiva uning mohiyati, taraflar o'rtasida isbotlash burchini taqsimlash, dalillarning turlari (klassifikatsiyasi): shaxsiy va ashyoviy; boshlang'ich va unga bog'lik bo'lgan (xosila) dalillar; to'g'ri va egri, og'zaki va yozma dalillar, dalillarga baho berish. Isbotlash vositalarining turlari, taraflar va uchinchi shaxslarning tushun tirishlari, guvohlarni so'rok qilishning protsessual tartibi, guvohlarning huquq va burchlari, yozma dalillar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida. Ushbu sohada qabul qilingan qonun hujjatlar asosida hamda Oliy sud Plenum qarorlarini me'yor - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Barcha fuqarolik ishlari bilan bog'liq ishlarni ko'ruvchi sudlar sudda ishni ko'rishda taraflar tomonidan taqdim qilingan ko'rsatmalar va dalillarga asoslanib ish ko'radilar. Shu asosda isbotlash deb fuqarolik protsessii sub'ektilari bo'lgan taraflar, sud, prokuror va boshqa shaxslarning fuqarolik ishini hal qilish uvchun zarur bo'lgan faktlarning mavjud bo'lish –bo'lmasligini aniqlashga qaratilgan faoliyatlariga aytiladi. Isbotlash taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning sudga dalillar keltirishidan, bayonotlar berilishidan, qarshi tomonning tushun tirishlaridan va keltirilgan dalillarga qarshi e'tirozlardan, dalillarni tahlil qilishdan, nizoli faktlar to'g'risidagi dalillardan xulosalar chiqarishdan iborat bo'ladi.

Nizosiz ishlarni ko'rishda jumladan alohida tartibda ko'riladigan ishlarda muayan yuridik faktlar aniqlanadi. Bunday ishlarga muayan bir shaxs o'z muddaosini bildirib sudga shaxs muayan faktik holatni aniqlash masalan, meros olish yoki nafaqa olish uchun biror bir shaxsning qaramog'ida bo'lganligini isbotlashi uchu nasos borligini isbotlashi lozimdir.

Bir so'z bilan aytganda suda isbotlashning maqsadi protsessual qonunda ko'rsatilgan tartibda muayan fuqarolik ishini hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlashdan iboradir.

FPK ning 56-moddasida dalillar tushunchasibelgilangan, unga ko'ra taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlar mavjudligini yoki mavjud emasligini sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar fuqarolik ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Bu ma'lumotlar o'qyidagi vositalar bilan bilan, taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushun tirishlari, guvoxlarning ko'rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosasi bilan

aniqlanadi. Shuningdek muallifi ko'rsatilmagan xatlar va manbai noma'lum bo'lgan yoki g'ayriqonuniy tarzda olingan boshqa ma'lumotlar dalil bo'la olmaydi.

Fuqarolik protsessual qonunchilik sudda taraf sifatida ishtirok etayotgan hamda protsess ishtirokchilariga yoki boshqa shaxslarning manfaatini himoya qilish uchun ishtirok etayotgan shaxslarga muayan ko'rilayotgan ishga daxldor bo'lgan dalillarni keltirishga va ularni isbotlashga hamda dalillarni taqdim etishni talab qiladi va bu holatlar bo'yicha ularga nisbatan protsessual huquqlar ham beriladi. Buning huquqiy asosi FPK ning 57-moddasida belgilangan.

Bundan tashqari sud o'zining muayan fuqarolik ishini yurituvchida dalilarning daxldorligiga ham alohida e'tiborni qartadi va bunday hollarda sud faqat ish bo'yicha axamiyatga ega bo'lgan dalillarnigina ko'rishga qabul qiladi hamda sudning dalillar qabul qilishi yoki talab qilishni rad etishi to'g'risidagi ajrimi asoslantirilgan bo'lishi lozimligi ham talab etiladi.

Shuningdek sud qonun bo'yicha ishning muayan isbotlash vositalari bilan tasdiqlanishi lozim bo'lgan holatlarni boshqa hech qanday isbotlash vositalari bilan tasdiqlashiga yo'l qo'ymaydi va bular FPK ning 59-moddasida mustahkamlangan.

Ba'zi fuqarolik ishlarini ko'rishda sud o'z vakolati doirasida dalillarni isbotlashdan ozod qilinishiga ham yo'l qo'yadi. FPK ning 60-moddasida sud hammaga ma'lum deb topgan holatlar bo'yicha ularni isbotlashga muhtoj emas deb qaror qilishi ham mumkin.

Fuqarolik protsessining eng muhim jihatlaridan biri bu taqdim etilgan dalillarni ta'minlash masalasi muhim bo'lib hisoblanadi va bunday choralarning ko'rilishi sudning muayan ishni tez, asosli, qonuniy va adolatli hal qilishida yordam beradi.

Buning protsessual huquqiy tartibi FPK ning 61-moddasida qayd qilingan. Bundan tashqari sud barcha fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda FPK ning 62 moddasidan 92 –moddalarida belgilangan protsessual qoidalarga amal qilshi shart hisoblanadi.

O'zlashtirish savollari

1. Suddagi dalillar va isbotlash vositalarining tushunchasiva maq-sadi. Dalillarning daxldorligi va isbotlash vositalariga yo'l ko'yilishi.

2. Isbotlashdan ozod qilish asoslari. Dalil prezumtsiyasi, tushunchasi va uning mohiyati.

3. Taraflar o'rtasida isbotlash burchini taqsimlash. Dalillarning turlari (klassifikatsiyasi): shaxsiy va ashyoviy; boshlang'ich va unga bog'lik bo'lgan (xosila) dalillar; to'g'ri va egri, og'zaki va yozma dalillar. Dalillarga baho berish.

4. Isbotlash vositalarining turlari. Taraflar va uchinchi shaxslarning tushun tirishlari.

5. Guvohlarni so'rok qilishning protsessual tartibi. Guvohlarning huquq va burchlari. YOzma dalillar. Yozma dalillarning turlari (mazmuni va shakli bo'yicha).

6. Ashyoviy dalillar, ashyoviy dalillarning yozma dalillardan farqi. Ashyoviy dalillarni taqdim qilish va ularni saqlash tartibi.

7. Ekspertiza, sud ekspertizasini tayinlash tartibi, uni sud majlisida va suddan tashqarida o'tkazish uchun asoslar. ekspertning xulosasi va mazmuni. ekspertning protsessual huquq va burchlari.

8. Qo'shimcha va qayta ekspertiza tayinlash. Sudga mutaxassisni jalb qilish. Ularning protsessual huquq va burchlari. Mutaxassisning ekspertdan farqi.

9. Dalillarni ta'minlash uchun asoslar va protsessual tartibi. Da'voni qo'zg'atishga qadar va qo'zg'atgandan keyin dalillarni ta'minlash.

10. Sud topshiriqlari. Sud topshiriqlarini berish va ularni bajarishning protsessual tartibi.

13-MAVZU. DA'VO

Tayanch iboralar: sudda da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladigan ishlar, da'vo tushun chasi, uning elementlari va turlari, da'voga bo'lgan huquq va da'vo qo'zg'atish huquqi, bir necha talabni birlashtirish va ajratish. Javobgarining manfaatlarini himoya qilish, da'voga karshi e'tiroz bildirish (moddiy huquqiy va protsessual huquqiy e'tiroz), qarshi da'vo, qarshi da'voni qo'zg'atish tartibi, kelishuv bitimi va uning oqibatlarini, da'voni ta'minlash va uni bekor qilish tartibi, da'voni ta'minlash choralari, jinoiy ishlarda fuqaroviy da'volar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining me'yor - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Har bir fuqaro yoki manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlarini tiklash uchun fuqarolik sudlariga da'vo qo'zg'atish yo'li bilan murojaat qilishi mumkin va bu huquqlarning asoslari FPK ning 1-moddasida belgilab qo'yilgan.

Sudda da'vo qo'zg'atish huquqi fuqarolar, davlat manfaatlarini va tashkilotlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilishning protsessual vositasi bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolik da'vosi nafaqat fuqarolik sudlarida balki jinoiy sudlarda ham qo'zg'atilishi mumkin. Yuridik adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha da'vo so'zining bir qancha ma'nosi mavjud bo'lib bular:

- xun da'vosi o'ldirilgan kishining qoniga qon olish yoki qonun bilan jazo talab etish:

- birovni ayblash yoki tuhmat qilish da'vosi:

- o'zida yo'q haq huquqlarni yoki xislat fazilatlarini e'tirof etilishi yo'lidagi talab qilishga bo'lgan noo'rin yoki nohaq urinish talabi, da'vo qilishi va boshqalar bo'lishi mumkin¹.

Fuqarolik da'vo ishi nizoli bo'lib ko'riladi. Bunday ishlarda albatta nizolaShuvchi taraflar, da'vogari va javobgar qatnashadi va ular o'rtasida nizoli huquqiy talab bo'ladi. Agarda nizoli huquqiy talab bo'lmasa da'vo ham nizoli sud ham bo'lmaydi.

Har qanday fuqarolik da'vosining ikki tomoni mavjud bo'lib ular qo'yidagilarda o'z mazmunini topadi:

Birinchidan, moddiy-huquqiy tomoni bunda avvalo da'vogarning javobgarga nisbatan muayan nizoli moddiy-huquqiy talabi bo'lishi, masalan,

¹ Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. TDYUI, 2007. – 180-b.

Biron-bir ashyoningtopshirilishi, pul to'lanishi, xizmat ko'rsa-tilishi, zararining qoplanishi xususidagi talablardan iborat bo'ladi.

Ikkinchidan, protsessual huquqiy tomoni bunda taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizoning mazmunan hal qilinishi va buzilgan yoki nizoli huquqlarning qo'riqlanishi to'g'risida sudga iltimos bilan murojaat qilinishi hisoblanadi.

E.E.Egamberdievning fikricha, da'vo, yani nizoli moddiy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan va muayan protsessual tartibda ko'rish va hal qilish uchun sud yoki boshqa vakolatli organga qo'zg'atilgan talab tushunchasi bilan da'voga bo'lgan huquq tushunchasi chambarchas bog'liqdir deb ta'kidlaydi¹.

Da'vo ishlarini yuritishning protsessual asosi va tartibi FPK ning 21-bobida ko'rsatilgan. Ushbu bobning 239-moddasida suda da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladigan ishlarga fuqarolik munosabat-laridan, mehnatga oid, oilaga, uy-joyga doi rva boshqa huquqiy munosabatlardan kuelib chiqadigan da'volar bo'yicha ishlar kiradi, basharti, qonun hujjatlarida ularni ko'rishning o'zga tartibi belgilan-magan bo'lsa Shular asosida ko'rib chiqilishi belgilangan.

Da'vo ishlarini yuritishning sudlovga talluqligi 241-moddada belgilangan. Ushbu moddani biz fuqarolik igshlarining sudga talluqlilik mavzusini ko'rib chiqqanda ushbu moddani tartibini asosini ko'rib chiqqan edik.

Fuqarolik ishlarini suda da'vo tartibida ko'rishda uning elementlari ham muhim hisoblanadi. Fuqarolik protsessual huquqining nazariy asoslariga ko'ra da'volar ikki elementdan iborat ekanligi belgilangan, da'vo predmet iva da'vo asosidan iboratligi qayd qilingan.

Da'voning predmetiga da'vogarning talabi, yani uni javobgardan sud orqali talab qilinayotgan narsadan iborat bo'ladi. Da'vo predmeti Biron bir narsani undirish to'g'risidagi talablar Shuningdek muayan summaning undirilishi, Biron-bir mulkning topshirilishi, xizmat ko'rsatishi to'g'risidagi moddiy-huquqiy yoinki shaxsiy huquqqa asoslangan talab bo'lishi mumkin.

Da'voning asosi bo'lib esa da'vo talabini tasdiqlaydigan dalillardan iborat bo'ladi. FPK ning 149-moddasida da'vogar arizasida uning talabi qanday holatlarga asoslanganligini va bu hollarning mavjudligini tasdiqlaydigan dalillarni ko'rsatish lozimligi qayd qilingan. Bunday holatlarda muayan yuridik faktlar vujudga kelishi mumkin. Da'vo qo'zg'atish uchu nasos bo'ladigan yuridik faktlar juda ko'plab uchraydi. Jumladan, tuzilgan shartnomalarning bajarilmasligi, qarzga olingan narsaning qaytarilmasligi, topshiriqning bajarilmasligi, yoki sifatsiz bajarilishi, fuqaroning o'limi, yuridik shaxslarning tugatilishi va Shu kabi holatlar bo'lishi mumkin.

Da'voni ta'minlash FPKda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. FPKning 248-moddasida sud yoki sudya ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan da'voni ta'minlash choralari ko'ra olishi belgilangan. Bundan tashqari jinoiy ishlarda ham fuqarolik da'vosi ko'rilishi mumkin.

¹ E.E.Egamberdiev. Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari. T.:1996 yil.

O'zlashtirish savollari

1. Sudda da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladigan ishlar.
2. Da'vo tushun chasi, uning elementlari va turlari.
3. Da'voga bo'lgan huquq va da'vo qo'zg'atish huquqi. Bir necha talabni birlashtirish va ajratish. Javobgarning manfaatlarini himoya qilish.
4. Da'voga qarshi e'tiroz bildirish (moddiy huquqiy va protsessual huquqiy e'tiroz). Qarshi da'vo, qarshi da'voni qo'zg'atish tartibi. Kelishuv bitimi va uning oqibatlari.
5. Da'voni ta'minlash va uni bekor qilish tartibi. Da'voni ta'minlash choralari.
6. Jinoiy ishlarda fuqaroviy da'volar.

14-MAVZU. SUDDA FUQAROLIK ISHLARINI QO'ZG'ATISH

Tayanch iboralar: sudga ariza berish tartibi, da'vo arizasi, ariza va shikoyatlarga ko'yilgan talablar, ularning tuzilishi, mazmuni va unga rioya qilmaslik oqibatlari, arizani qabul qilishni rad qilish asoslari va uni rasmiylashtirish tartibi, arizani harakatsiz qoldirish, fuqarolik ishlarini ko'zg'atishning huquqiy okibatlari.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud - huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalari hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Sudda fuqarolik ishini qo'zg'atish yuqorida qayd qilib o'tkanimizdek fuqaroning buzilgan yoki nizlashayotgan huquqlarini tiklash uchun yoki ularni himoya qilish uchun fuqarolik sudlariga murojaat qilishi tushuniladi.

FPKning 5-moddasida suda fuqarolik ishini qo'zg'atishga asos bo'lgan sub'ektlarning huquqlari belgilangan. Unga ko'ra sud qo'yijddagi fuqarolik ishini qo'zg'atishi mumkin:

1. o'zining huquqi yoki qonun bilan qo'riqlanayotgan manfaatini himoya qilishni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasi bo'yicha:

2. prokurorning arizasi bo'yicha:

3. agar davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunga muvofiq boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishga haqli bo'lsalar, ularning bergan arizalari bo'yicha fuqarolik ishlari qo'zg'atilishi mumkinligi belgilangan.

Bundan tashqari fuqarolik sudida ish qo'zg'atishning protsessual tartib qoidalari FPK ning 148-157-moddalari asosida amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarga muvofiq fuqarolik sudida ishlar da'vo tartibida, shikoyat tartibida va ariza tartibida qo'zg'atiladi.

Sudda fuqarolik ishini qo'zg'atish uchun eng asosiy hujjat bu da'vo arizasi hisoblanadi. Ushbu da'vo arizasining mazmuni FPKning 149-moddasida belgilangan talablar asosida topshirilishi kerak. Fuqarolik sudlariga da'vo arizalari javobgarining soniga mutanosib ravishda beriladi. Ayrim holatlarda sudya ishning murakkabligiga va uning mazmuniga qarab FPKning 150-moddasiga muvofiq da'vogarning arizasiga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini javobgarining soniga qarab ko'rsatilishiga majbur qilishi ham mumkin.

Da'vo arizasida qo'yidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

- ariza berilayotgan sudning nomi;

- da'vogarning nomi, yashash joyi vakilning nomi va uning yashash joyi agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa;
- javobgarning nomi;
- da'vogarning talabi;
- agar da'voni baholash lozim bo'lsa uning bahosi;
- da'vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar;
- arizaga ilova qilingan hujjatlarning ro'yxati.

Fuqarolik sudlarida sudya ishni qo'zg'atish masalasini ko'radi va bu haqda o'zining ajrimini chiqaradi. Shuningdek sudya ayrim holatlarda arizani qabul qilishni rad etishi ham mumkin. Agarda ariza suda ko'rishga tegishli bo'lmasa, sudning aynan taraflar o'rtasida, aynan bir turdagi bir narsa bo'yicha chiqqan nizo chiqqan bo'lsa qonuniy kuchga kitrgan hal qiluv qarorini yoki da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilsa yoki taraflarning keliShuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrimi mavjud bo'lsa, va boshqa shunga o'xshash holatlar bo'lsa sud fuqarollik ishini qo'zg'atmasligi mumkin. Ushbu holatlar FPK ning 152- moddasida ko'rsatib o'tilgan.

O'zlashtirish savollari

1. Sudga ariza berish tartibi.
2. Da'vo arizasi, ariza va shikoyatlarga ko'yilgan talablar, ularning tuzilishi, mazmuni va unga rioya qilmaslik oqibatlari.
3. Arizani qabul qilishni rad qilish asoslari va uni rasmiylashtirish tartibi.
4. Arizani harakatsiz qoldirish.
5. Fuqarolik ishlarini ko'zg'atishning huquqiy okibatlari.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZUSI: FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA KO'RISHGA TAYYORLASH

Tayanch iboralar: fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash boskichining maqsadi va ahamiyati, ishlarni sudga ko'rishga tayyorlash vazifalari, ishni tayyorlash tartibida taraflarni so'roqlash, ishni sudga ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudyaning harakatlar, fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash muddatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash va uni ko'rish muddatlari to'g'risida»gi 1999 yil 24 sentyabrdagi qarori va uning ahamiyati, ishni sudga ko'rishga tayinlash, sud xabarnomalari va chaqiruvlari, sudning chaqiruv qog'ozlari va uning mazmuni, sud chaqiruv qog'ozini topshirish tartibi va muddati, chaqiruv qog'ozini qabul qilishdan bosh tortish oqibatlari, javobgarni (qarzdorni) qidirish.

Ushbu mavzuning kengroq mazmuni FPK ning 158-161-moddalarida belgilangan asoslar va tartiblarda ko'rib chiqiladi.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash boskichining maqsadi va ahamiyati. Ishlarni sudga ko'rishga tayyorlash vazifalari.
2. Ishni tayyorlash tartibida taraflarni so'roqlash.
3. Ishni sudga ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudyaning harakatlar.
4. Fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash muddatlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash va uni ko'rish muddatlari to'g'risida»gi 1999 yil 24 sentyabrdagi qarori va uning ahamiyati.
6. Ishni sudga ko'rishga tayinlash.
7. Sud xabarnomalari va chaqiruvlari.
8. Sudning chaqiruv qog'ozlari va uning mazmuni. Sud chaqiruv qog'ozini topshirish tartibi va muddati.
9. Chaqiruv qog'ozini qabul qilishdan bosh tortish oqibatlari. Javobgarni (qarzdorni) qidirish.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZUSI: FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA MUHOKAMA QILINISHI

Tayanch iboralar: sudda ish ko'rish fuqarolik protsessining asosiy va muhim bosqichi sifatida ahamiyati, sudda ishni muhokama qilishda raislik qiluvchining o'rni, sud majlisining qismlari, sud majlisidagi tartib, sud majlisining tayyorlov qismi, sud majlisiga chaqirilgan shaxslarni kelmay qolish oqibatlari, sudya va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish asoslari va tartibi, ishni mazmunan muhokama qilish, sud muzokaralari, ishning mazmuni bo'yicha prokurorning fikri, ish yuzasidan sudning hal qiluv qarorini chiqarish va uni e'lon qilish. Ish ko'rishni keyinga qoldirish, ish yuritishni to'xtatish, arizani ko'rmasdan qoldirish, hal qiluv qarorini chiqarmasdan turib ish yuritishni tugatish, ish yuritishni tugatish va arizani ko'rmay qoldirishning huquqiy oqibatlari va farqi, sud majlisining bayonnomasi, uning mazmuni va ahamiyati.

Ushbu mavzuning batafsil mazmuni FPKning 162-202-moddalarida belgilangan va ular qonunda ko'rsatilgan asoslar va tartiblarda ko'rib chiqiladi.

O'zlashtirish savollari

1. Sudda ish ko'rish fuqarolik protsessining asosiy va muhim bosqichi sifatida ahamiyati.
2. Sudda ishni muhokama qilishda raislik qiluvchining o'rni. Sud majlisining qismlari. Sud majlisidagi tartib.
3. Sud majlisining tayyorlov qismi. Sud majlisiga chaqirilgan shaxslarni kelmay qolish oqibatlari.
4. Sudya va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish asoslari va tartibi.
5. Ishni mazmunan muhokama qilish. Sud muzokaralari. Ishning mazmuni bo'yicha prokurorning fikri.
6. Ish yuzasidan sudning hal qiluv qarorini chiqarish va uni e'lon qilish. Ish ko'rishni keyinga qoldirish. Ish yuritishni to'xtatish.
7. Arizani ko'rmasdan qoldirish. Hal qiluv qarorini chiqarmasdan turib ish yuritishni tugatish.
8. Ish yuritishni tugatish va arizani ko'rmay qoldirishning huquqiy oqibatlari va farqi. Sud majlisining bayonnomasi, uning mazmuni va ahamiyati. Sud majlisining bayonnomasi bilan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tanishish huquqi va bayonnoma yuzasidan mulohaza berish.
9. Sud majlisining bayonnomasi yuzasidan berilgan mulohazani ko'rish tartibi va muddati.

Seminar mavzulari

1. Fuqarolik protsessi tushunchasiva tizimi;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessining tamoyillari;
3. Fuqarolik protsessida taraflar.
4. Fuqarolik propessida uchinchi shaxslarning ishtiroki.

5. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki.
6. Boshqa shaxslarning huquqlarini sudda himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessdagi ishtiroki.
7. Suddagi vakillik.
8. Sud xarajatlari.
9. Sud jarimalari.
10. Protsessual muddatlar.
11. Fuqarolik ishlarining taalluqliligi.
12. Fuqarolik ishlarining sudlovligi.
13. Isbotlash va dalillar.
14. Da'vo.
15. Sudda fuqarolik ishlarini qo'zg'atish.
16. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash.
17. Fuqarolik ishlarining sudda muhokama qilinishi.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Fuqarolik protsessining manbalari.
2. Fuqarolik protsessual huquqida javobgarlik.
3. Fuqarolik protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari.
4. Boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini sudda himoya qilishda prokuror vakolatini ta'minlash masalalari.
5. Javobgar manfaatlarini himoya qilish shakllari.
6. Boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda advokatning protsessda ishtirok etish xususiyatlari.
7. Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasi bo'yicha ishlarni sudda ko'rish xususiyatlari.
8. Mehnatga oid etkazilgan moddiy zararni undirishdan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.
9. Sud jarimalari.
10. Protsessual muddatlar.
11. Fuqarolik ishlarining taalluqliligi.
12. Fuqarolik ishlarining sudlovligi.
13. Isbotlash va dalillar.
14. Da'vo.
15. Sudda fuqarolik ishlarini qo'zg'atish.
16. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash.
17. Fuqarolik ishlarining sudda muhokama qilinishi.

Nazorat ishi uchun savollar majmuasi.

1. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar va ularning sub'yektlari tushunchasi.
2. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari va mazmuni.
3. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar sub'yektlarining huquq va muomila layoqati.

4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual Kodeksi tizmi va mazmuni.
5. "Sudlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni va uning sud isloxotidagi ahamiyati.
6. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni sudda himoya qilish tushunchasi.
7. Mulkiy huquqlarni sudda himoya qilish tartibi.
8. Oila huquqi munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sudlar to'g'risida belgilangan moddalarning mazmuni va uning tushunchasi.
10. Protsessual muddatning tushunchasi va turlari.
11. Protsessual muddatlarning to'xtatilishi, o'zgartirilishi va tiklanishi.
12. Boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zararlar o'rnini koplash to'g'risidagi ishlarning sudlovligi.
13. Fuqarolik ishlarining sudga taalluqliligi.
14. Sudlovlik (podsudnost) tushunchasi.
15. Prokurorning arizasi bo'yicha sudda ko'riladigan ishlar tushunchasi.
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudning sudlariga taalluqli ishlar.
17. Ishni bir suddan boshkasiga o'tkazish tartibi va protsessual harakatlarni bajarish tushunchasi.
18. Ajrim ustidan shikoyat berish yoki unga nisbatan protest keltirish tartibi.
19. Tashkilotlarning sudga murojat qilishi tartibi ariza yozish shakli, arizaning mazmuni.
20. Arizani qabul qilishni rad etish asoslari va rad etishni rasmiylashtirish tushunchasi.
21. Sudyaning bir turdagi ishlarini birlashtirish huquqi va protsessual tartibi.
22. Sud majlisida ishni ko'rishning protsessual tartibi.
23. Sudda ish yuritishni to'xtatib turish.
24. Sudlarda odil sudlovni amalga oshirish, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilish tushunchasi.
25. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlash-tirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis to'qqizinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasi.
26. Fuqarolik ishida ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish tartibi.
27. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarni so'roq qilish tartibi.
28. Sud ishtirokchilarining ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va guvohlarning protsessual huquqlari.
29. Sud majlisidagi tartib.
30. O'n olti yoshga to'lmagan fuqorolar, ular ishda ishtirok etuvchi shaxs yoki guvohlar bo'lmasa, sud majlisi zaliga qo'yish tartibi.

31. Prokuror yoki advokatning protsessual huquq va majburiyatlari.
32. Sud majlisiga uchinchi shaxsni taklif qilish tartibi.
33. Fuqorolik ishlarini umumiy koida bo'yicha oshkora ko'rilish tartibi
34. Odil sudlovni amalga oshirishda fukorolarning ishtirokini ta'minlash.
35. Sudda fukorolik ishlarini ko'rib chikib hal qilishda sud majlisining ketma ketligi.
36. Fuqorolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash vazifalari.
37. Ishni tayyorlash tartibda taraflarni so'roqlash.
38. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudyaning harakatlari
39. Sudya arizani qabul qilib, fuqorolik ishi ko'zg'atganidan so'nggi harakatlari.
40. Javobgarning sud majlisiga kelmaganligi oqibatlari.
41. Taraflarning kelishuv bitimini tuzishning protsessual tartibi.
42. Ishni ko'rishga tayyorlash jarayonida vakillarning qatnashish masalasini hal qilish tartibi.
43. Ishda prokurorning ishtirok etishi to'g'risidagi va tegishli davlat boshqaruvi organini sud protsessida qatnashishga jalb etish masalasini hal qilish.
44. Tashkilotlardan yoki fuqarolardan yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib olish tartibi.
45. Sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini hisobga olib ekspertiza tayinlash masalasini hal qilishi.
46. Sudning boshqa sudlarga sud topshiriqlarini yuborishi tartibi.
47. Ishni yetarli darajada tayyorligi haqida ajrim chiqarish tartibi.
48. Taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ishni ko'rish vaqti va joyi haqida ma'lum kilish.
49. Sud xabarlari va chakiruvchilari.
50. Sud ishlarini apelatsiya, kassatstsia va nazorat tartibida ko'rilish tartibi.
51. Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi.
52. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslarning ishtiroki.
53. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki.
54. Boshqa shaxslarning huquqlarini sudda himoya qiluvchi davlat boshqaruv idoralari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtiroki.
55. O'zbekiston respublikasi fuqorolik protsessual kodeksining asosiy tamoyillari.
56. Fuqarolik protsessida fuqarolik protsessual vorislik tushunchasi.
57. Sud hal qiluv qarori tushunchasi va uning mazmuni.
58. Fuqarolik protsessida mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar.
59. Prokuror boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqi.

60. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni va uning fuqarolik protsessidagi ahamiyati.
61. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumida ish yuritish tartibi.
62. Sud hal qiluv qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish tartibi.
63. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolarning haq huquqlarini kamsituvchi qarorlari ustidan ish ko'rish tartibi.
64. Sud buyrug'i tushunchasi.
65. Sudda fuqarolik ishni qo'zg'atish asoslari va tartibi.
66. Fuqarolik sudida vakillik tushunchasi.
67. Sud ajrimi tushunchasi va uning mazmuni.
68. Fuqarolik protsessual huquqning tamoyillari.
69. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi va uning vazifalari.
70. Fuqarolik protsessining bosqichlari.
71. Sudda ish ko'rishning oshkoraligi, bevositaligi va og'zakiligi.
72. Fuqarolik protsessiga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi.
73. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi va ularning protsessual huquq va majburiyatlari.
74. Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi.
75. Ishga daxldor bo'lmagan shaxslarni almashtirish tartibi va uning tushunchasi.
76. Fuqarolik protsessida mustaqil da'vo bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar tushunchasi.
77. Fuqarolik protsessida mustaqil da'vo bilan arz qilmaydigan shaxslar tushunchasi.
78. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etish maqsadi, asoslari va shakllari.
79. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash.
80. Protsessual ishtirokchilik tushunchasi.

Semestrlar bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi

Semestr	Yuk-lama	Auditoriya mashg'ulotlarituri bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimoti(soat)						Mustaqil ta'lim
		jami	Ma'-ruza	Ama-liy mash.	Labora. ishlari	Sem-inar.	Kurs ish	
5-6 semestr		243	64	64				115
Jami:		243	64	64				115

O'zlashtirish nazorati

Talabalar bilimini nazorat qilish turlari

Semestr	Nazorat turi	%	Maksimal ball(100%)	O'tish bali(55%)
VI	J.N.	35	35	19,2
	O.N.	50	50	27,5
	YA.N.	15	15	8,2

Talaba bilimini baholash

qoniqarsiz		Qoniqarli		yaxshi		a'lo	
Ball		Ball		ball		ball	
Min.	Maks.	Min.	Maks.	Min.	Maks.	Min.	Maks.
0	54	55	70	71	85	86	100
Bilmaslik aniq tasavvurga ega bo'lmaslik		Tassavvurga ega bo'lish, bilish, aytib berish. Mohiyatini tushunish		Amalda qo'llay olish. Must.musho hada yuritish		Ijodiy fikrlay olish. Xulosa va qaror kabul qilish	

TEST VARIANTLARI

1. Sud orqali himoyalaniş huquqi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasida belgilangan;

O'zbekiston Respublikasi Sudlar tug'risidagi qonunning 2 moddasida;

O'zbekiston Respublikasi Prokuratura tug'risidagi qonunning 4-moddasida;

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 4 moddasi.

2. Sudda fuqarolik ishini qo'zg'atish,

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 5-moddasida belgilangan holatlarda.

Har bir shaxsning arizasi tergovchining arizasi sudning arizasi bo'yicha;

Prokurorning takdimnomasi bo'yicha;

Mahalla qumitasi raisining arizasi buyicha.

3. Fuqarolik protsessual huquqi fanida taraflar tushunchasi,

Da'vogar hamda javobgar Fuqarolik protsessning birinchi navbatdagi taraflari hisoblanadi;

Fuqarolik protsessida taraflar sifatida javobgar hamda uning yaqin qarindoshlari hisoblanadi;

Uchinchi shaxslar Fuqarolik protsessida birinchi navbatdagi taraflar;

Fuqarolik protsessida birinchi navbatdagi taraf sifatida prokuror qonuniy va shartnomaviy vakil hisoblanadi.

4. Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi,

Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi Fuqarolik protsessual kodeksining 43-moddasida belgilangan;

Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi Sudlar tug'risidagi qonunda belgilangan;

Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi mahalla fuqarolar qarorlari asosida hal qilinadi;

Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi oila huquqi normalari asosida tartibga solinadi.

5. Fuqarolik protsessida qo'yidagilar shartnoma bo'yicha ixtiyoriy vakil bo'la oladilar,

Advokatlar, prokurorlar, mahalla vakillari va maktab direktorlari;

Advokatlar, taraflar, uchinchi shaxslar tomonidan tayinlangan shaxslar, birgalikda va ishtirok etuvchilardan biri boshqa ishtirok etuvchilarning topshirig'i bo'yicha;

Advokatlar, tergovchilar, tarjimonlar, prokurorlar va o'qituvchilar;

Advokatlar, uchinchi shaxslar va fuqarolar yig'ini raisi.

6. Fuqarolik protsessida dalillarni ta'minlash to'g'risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat qilish,

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi sud ajrimi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin emas;

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi sud ajrimi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin;

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi sud ajrimi ustidan sudga shikoyat qilish bir oy davomida mumkin;

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi sud ajrimi ustidan sudga shikoyat qilish taraflarning ixtiyoriga ko'ra.

7. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni,

2000-yil 14-dekabrda;

2000-yil 14-avgustda;

2000-yil 14-martda;

2000-yil 14-mayda.

8. Quyidagilar fuqarolik sudida guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi...

Vakil yoki himoyachi vazifalarini bajarishlari munosabati bilan uzlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida vakillar, jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli faktlarni to'g'ri idrok etish yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuv berishga layoqatsiz shaxslar mumkin emas;

Vakil yoki himoyachi hamda advokatlar;

Jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli faktlarni to'g'ri idrok etish yoki ular haqida to'g'ri kursatuv berishga layoqatsiz shaxslar mumkin emas;

Vakil yoki himoyachi vazifalarini bajarishlari munosabati bilan uzlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida vakillar.

9. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat deb...

Protsessual huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga aytiladi;

Fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga aytiladi;

Ma'muriy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga aytiladi;

Protsessual hamda fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga aytiladi.

10. Ekspertning majburiyatlari va javobgarligi bo'yicha qo'llaniladigan jarima miqdori..

Eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda;

Eng kam ish haqining o'n baravarigacha miqdorda;

Eng kam ish haqining o'n besh baravarigacha miqdorda;

Eng kam ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda.

11. Sud xarajatlarining turlari...

Sud xarajatlarining davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlardan iborat;

Sud xarajatlarining davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq qo'shimcha chiqimlardan iborat;

Sud xarajatlarining davlat soliq to'lovi va ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlardan iborat;

Sud xarajatlarining davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq mahalliy chiqimlardan iborat.

12. Fuqarolik sudida davlat bojini qaytarib berish tartibi...

Qonun hujjatlari bo'yicha talab qilinganidan ortiq boj to'langan bo'lsa;

Qonun xujjatlari bo'yicha talab qilinganidan besh barobardan ortiq boj to'langan bo'lsa;

Qonun hujjatlari bo'yicha talab qilinganidan un barobaridan ortiq boj to'langan bo'lsa;

Qonun hujjatlari bo'yicha talab qilinganidan yigirma barobardan ortiq boj to'langan bo'lsa.

13. Sud xarajatlari to'lashdan ozod qilish...

Sud fuqarolarning mulkiy ahvoliga qarab, uni davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlari to'lashdan ozod qilishga haqli;

Da'vogarning da'vosi bo'yicha;

Javobgar hamda uning shartnomaviy vakilining arizasi bo'yicha;

Da'vogar hamda prokurorning talabi bo'yicha.

14. Protsessual muddatlarni hisoblash...

Protsessual muddatlar yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi;

Protsessual muddatlar yillar, oylar va haftalar bilan hisoblanadi;

Protsessual muddatlar yillar, oylar va soatlar bilan hisoblanadi;

Protsessual muddatlar yillar, va kunlar bilan hisoblanadi;

15. Protsessual muddatlarni tiklash...

Protsessual muddatlar sud tomonidan tiklanishi va kechiktirilishi mumkin;

Prokuror tomonidan protsessual muddatlar tiklanishi va kechiktirilishi mumkin;

Taraflarning arizalariga muvofiq tiklanishi yoki kechiktirilishi mumkin;

Prokuror va sudning qaroriga muvofiq tiklanishi yoki kechiktirilishi mumkin.

16. Sud chaqiruv qogozining mazmuni,..

Fuqarolik protsessual kodeksning 133-moddasida belgilangan;

Sudlar to'g'risidagi qonunning 12-moddasida belgilangan;

Fuqarolik kodeksining 5-moddasida belgilangan;

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida belgilangan.

17. Sudlovga taalluqli ishlar...

Sudlarga taalluqli fuqarolik ishlari fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman(shahar) sudlarida kuriladi;

Sudlarga taalluqli fuqarolik ishlari fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, tuman (shahar) sudlarida kuriladi;

Sudlarga taalluqli fuqarolik ishlari fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, tuman (shahar) sudlarida kuriladi;

Sudlarga taalluqli fuqarolik ishlari fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, mintaqa, tuman (shahar) sudlarida kuriladi.

18. Fuqarolik sudida ish qo'zgatish tartibi...

Sudda fuqarolik ishlari yozma shaklda ariza berish yuli bilan quzgatiladi;

Sudda fuqarolik ishlari ogzaki xolda murojaat qilish bilan quzgatiladi;

Sudda fuqarolik ishlari yozma shaklda ariza va ogzaki shaklda murojaat qilish yuli bilan quzgatiladi;

Sudda fuqarolik ishlari yozma shaklda ariza berish yuli bilan mahalliy idoralarning roziligi bilan quzgatiladi;

19. Fuqarolik sudida ishni ko'rish tartibi.,

Fuqarolik sudida ishni ko'rishda albatta taraflarni xabardor qilgan xolda ochiq majlisda kuriladi;

Fuqarolik sudida ishni ko'rishda taraflarni xabardor qilgan xolda yopiq majlisda kuriladi;

Fuqarolik sudida ishni ochiq majlisda kuriladi;

